

XALQ VA ARMIYA – BIR TAN-U BIR JON!

# VATANPARVAR

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)



2022-yil 4-fevral, №5 (2964)

@vatanparvar09@mail.ru



“  
Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani “Paxtazor” mahalla fuqarolar yig'ida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish maqsadida keng ko'lamlı festival tashkil etildi.

3-sahifa



“  
O'quv yig'iniga Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan havo-desant xizmati mutaxassislari jalb etilgan bo'lib, ular bu yerda o'z tajriba va mahoratlarini sinovdan o'tkazib qaytgach, harbiy qismlarda parashyut bilan sakrashlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'ladi.

4-sahifa



YER-U  
OSMONINGGA  
POSBONMIZ,  
YURTIM!



# EKOLOGIK MADANIYAT — HAMMAMIZNING ISHIMIZ VA INSONIY BURCHIMIZDIR

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

Yig‘ilish avvalida davlatimiz rahbari jamoatchilikka murojaat qildi:

– Yoshligimizdan bilamizki, otanalimiz hovlini, atrofni pok saqlash kerakligini aytardi. Xalqimiz azaldan tuproqni, suvni, tabiatni muqaddas deb bilgan. “Birni kessang, o‘nni ek” degan dono maqol ham bejiz aytilmagan. Daraxt ekkan odamga uning savobi tegib turadi, deyilgan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan.

Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog‘liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e‘tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o‘ylab ish tutishimiz zarur.

Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish. Bugun ko‘chaga yoki istalgan joyga qarang. Hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni ko‘rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz? Axir, muqaddas kitoblarimizda ham “Poklik iymondandur” deyilgan.

Nega bu masalada ommaviy axborot vositalari, mahalla faollari bong urmayapti? Qani nuroniyalarimiz, jamoatchiligimiz?

Albatta, bunday muammolarni faqat ma‘muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Mahallada, ko‘chalarda chiqindi tashlagan kishini ko‘rganda “Bu ishingiz noto‘g‘ri bo‘ldi”, deyilgan muhitni shakllantirishimiz, odamlarni bunga o‘rgatishimiz kerak. Bu – hammamizning ishimiz va insoniy burchimizdir, – deya ta‘kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda shu boradagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Tahlillarga ko‘ra, deyarli barcha davlatlarda qattiq maishiy chiqindilar miqdori aholi jon boshiga har yili 1 foizga ortib bormoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy-ijtimoiy o‘shish hisobiga bu ko‘rsatkich 7 million tonnaga yetib, yiliga 2 foizdan o‘smoqda.

Lekin ularni yig‘ish, saralash, qayta ishlash va utilitatsiya qilish ahvoli qoniqarli emas. Misol uchun, Qoraqalpog‘istonda 10 foiz, Farg‘ona va Qashqadaryoda 20 foiz chiqindi qayta ishlanadi, xolos. 781 ta mahallada chiqindilarni olib chiqish masalasi hal etilmagan. Aholining bu sohadagi xizmatlar bo‘yicha debitor qarzdorligi ham ko‘p. Tibbiyot va ta‘lim muassasalari, bozorlar uchun 19 ming dona chiqindi konteynerlariga ehtiyoj bor.

Qurilish chiqindisi poligonlari tashkil qilinmay, ular yo‘l, dala yoki daryo bo‘ylariga tashlab ketilmoqda. O‘tgan yili 4 mingta holatda qurilish chiqindilari noto‘g‘ri joyga tashlab ketilgani aniqlangan.

Xuddi shu kabi, mahalla, massiv va xiyobonlar hududidagi barg va daraxt shoxlarini yig‘ishtirish bilan shug‘ullanadigan mutasaddi yo‘q. Bu masalani hamma bir-biriga tashlash bilan ovara. Tibbiyot chiqindilarini saqlash, tashish va zararsizlantirish bo‘yicha ham yagona tizim mavjud emas.

Umuman, yurtimizdagi 197 ta chiqindi poligonining birortasi sanitariya va ekologiya talablariga javob bermaydi, 24 tasi to‘lib bo‘lgan.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda viloyat hokimlariga chiqindi poligonlarini tartibga keltirish, resursini

o‘tab bo‘lganlarini ko‘mish bo‘yicha topshiriq berildi. Bunday poligonlar tashkil etish va ularni yopishga oid qonun loyihasi ishlab chiqish muhimligi ta‘kidlandi.

Maishiy chiqindi to‘plash qamrovini 95 foizga, qayta ishlash hajmini 40 foizga yetkazish vazifasi qo‘yilar ekan, buning uchun imkoniyat ham yaratildi. Xususan, endi import qilinadigan texnika, butlovchi va ehtiyot qismlar bojxona bo‘jidan 3 yil muddatga ozod etiladi. Saralash va qayta ishlash texnikalari xaridi uchun 5 yilgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi va qayta moliyalashtirish stavkasidan oshgan qismi qoplab beriladi. Bu ishlar uchun xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘lari hisobidan 5 yil muddatga bosqichma-bosqich 500 milliard so‘m kredit ajratiladi.

Bu sohadagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash zarurligi aytiladi. Qayta ishlash quvvati bor klasterlarga yer, malmulk va ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz qilib belgilandi. Buning evaziga ularga o‘z hududidagi chiqindilarni qayta ishlash darajasini kamida 40 foizga olib chiqish talabi qo‘yildi.

Tuman va shaharlarda davlat-xususiy sheriklik asosida shunday korxonalar tashkil etish, hududlar uchun 500 ta maxsus transport olib kelish, ijtimoiy muassasalar va bozorlarga qo‘shimcha konteynerlar o‘rnatish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Toshkent shahridagi “Maxsustrans” korxonasi transformatsiya qilinib, uning negizida davlat-xususiy sheriklik korxonasi tashkil etiladi. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, maishiy chiqindilarga to‘lov undirishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Organik, qurilish va tibbiyot chiqindilarini utilitatsiya qilishning xavfsiz tizimini yaratish zarurligi qayd etildi.

– Bu sohani yil sayin takomillashtirib borish kerak, chunki yil sayin yangi muammolar paydo bo‘ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma‘lumki, 2021-yil noyabrda “Yashil makon” umummilliy loyihasi e‘lon qilinib, 200 million tup daraxt ko‘chati ekish rejalashtirilgan edi. Bunga muvofiq, kuzda 85 million dona ko‘chat o‘tqazildi. Ko‘plab tashkilotlar, mahallalar, umuman, keng jamoatchilik bu savobli ishda jonbozlik ko‘rsatdi. Bu yil bahor mavsumida 125 million dona daraxt ko‘chatlarini ekish mo‘ljallanmoqda.

– “Yashil makon” umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas. Uning doirasida kelgusi besh yilda 1 milliard tup daraxt ko‘chatini ekishni maqsad qilganmiz. Bu umummilliy harakatning natijasi har bir mahallada ko‘rinishi kerak, bu savobli ishni havas bilan qilish kerak, – dedi davlatimiz rahbari.

1-martdan “Yashil yillik” umummilliy tadbiri boshlanishi e‘lon qilindi. Har bir hududning iqlimiga mos, kam suv talab qiladigan ko‘chatlarni tanlab, ularni yetishtirish uchun ko‘chatxonalarni ko‘paytirish zarurligi qayd etildi. O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasiga 10 million dona mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini aholiga bepul tarqatish, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga xalqaro va respublika ahamiyatidagi yo‘llar chetida ixota daraxtzorlar barpo etish bo‘yicha topshiriq berildi.

Mutasaddi idoralarga barcha tuman va shaharlarni qamrab oladigan “mobil eko patrullar” faoliyatini yo‘lga qo‘yish topshirildi.

Yig‘ilishda soha mutasaddilari va viloyat hokimlarining axboroti eshitildi.

## TOSHKENT SHAHRIDA MAHALLABAY ISHLASH BO‘YICHA KO‘RSATMALAR BERILDI

**31-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.**

Dastlab aholi hayot darajasini mahallalar kesimida o‘rganish natijalari haqida ma‘lumot berildi.

Ma‘lumki, dunyoda Inson taraqqiyoti indeksi bor. U aholining hayot sifati, savodxonlik darajasi va umri davomiyligini qiyosiy baholaydigan ko‘rsatkichdir. Bu davlatimiz rahbari ilgari surgan “Inson qadrini ulug‘lash” g‘oyasi bilan hamohang.

Shundan kelib chiqib, Toshkent shahrida Inson qadri indeksini joriy etish bo‘yicha taklif tayyorlangan. Buning uchun Chilonzor, Uchtepa, Sergeli va Yunusobod tumanlaridan bittadan mahalla tanlab olinib, aholi o‘rtasida 56 xil masala bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazilgan. Bu orqali

mahallada qaysi soha oqsayotgani, odamlarda nimalarga talab borligi aniqlangan.

Taqdimotda shunday tahlilni sinov tariqasida poytaxt mahallalari kesimida yo‘lga qo‘yish, uning natijalariga qarab, muayyan hududga e‘tiborni kuchaytirish taklifi bildirildi.

– Buning mezonlari qanday bo‘ladi? Olti oy yoki yil yakunida nimaga erishiladi? Shuning uchun ilmiy asoslangan tizim kerak. Shahar hokimligida Situatsion markazga o‘xshash tahlil markazi tashkil qilish, dasturiy mahsulot yaratish zarur. Mahallabay ishlash oson emas, zimmamizga katta mas‘uliyat olyapmiz. Bu tizim qaysi mahallaga, qaysi ko‘chaga birinchi bo‘lib kirishni ko‘rsatib berishi kerak. Hamma ishlarni jamoatchilik bilan maslahatlashib, mahalliy Kengashlarda tasdiqlab, tartib bilan bajarish zarur, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Indeks loyihasini mutaxassislar bilan muhokama qilib, har tomonlama takomillashtirish, sektor rahbarlariga bu tizimni o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Bu ularning o‘z ish uslubini o‘zgartirishga undashi ta‘kidlandi.

Taqdimotda investitsiya va eksport masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Xususan, bu yil poytaxtimizda 738 ta loyiha bo‘yicha jami 3 milliard 800 million dollar investitsiya o‘zlashtirilishi qayd etildi. Shundan 2 milliard dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyadir. 500 ta loyiha joriy yilning o‘zida ishga tushirilib, 27 mingta yangi ish o‘rni tashkil etiladi.

Investitsiya loyihalarini mahallalar kesimida shakllantirish choralari, bu sohada 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar haqida ham axborot berildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahrining moliyaviy, iqtisodiy imkoniyatlari kengligini, hududiy loyihalarni ko‘paytirib, har bir tumanga qo‘shimcha 100 million dollar jalb qilish mumkinligini ta‘kidladi.

Tashqi savdo borasida ham “o‘shish nuqtalari” belgilab olingan. Xususan, joriy yilda Toshkent shahri eksporti 1 milliard 400 million dollar bo‘lishi kutilayotgan bo‘lsa, 2026-yilga borib bu ko‘rsatkichni 2 milliard 500 million dollarga yetkazish mo‘ljallangan.

Yirik xalqaro brendlarni jalb qilish orqali ham ichki bozor talabini qondirish, ham eksportni oshirish bo‘yicha ko‘rsatkichlar berildi.

Videoaloqa orqali tuman hokimlari va sektor rahbarlari bilan mahallabay ishlash masalalari yuzasidan muloqot bo‘ldi.



Muallif suratga olgan

# YOSHLAR BILAN ISHLASHDA

yangicha  
yondashuv

Prezidentimizning joriy yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bugun mamlakat yoshlari hayotida o'z aksini topmoqda.



“  
Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani "Paxtazor" mahalla fuqarolar yig'inida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish maqsadida keng ko'lamli festival tashkil etildi.

“  
Mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish g'oyalarini o'zida mujassam etgan bu ezgu amallar o'z samarasini bermoqda. Shuningdek, festival besh muhim tashabbus loyihalari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Festival doirasida Yoshlar ishlari agentligi va barcha vazirlik idoralari, jumladan, Mudofaa vazirligi hamda 4-sektor hamkorligida Paxtazor mahallasidagi mavjud 14-ko'cha kesimida sportning minifutbol, voleybol turlari bo'yicha musobaqalar tashkil etildi. Intellekt sohiblari uchun "Zakovat" aql bellashuvi, "Yosh kitobxon" musobaqasi, ma'naviy-ma'rifiy kechalar mahalla yoshlarini birlashtirdi.

Harbiy xizmatchilarning festival doirasidagi ko'rgazmali chiqishlari esa yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'lib, yoshlarda harbiylik kasbiga bo'lgan qiziqishini uyg'otgani shubhasiz.

III darajali serjant  
Olim BERDIYEV



# MUSTAHKAMLANGAN BILIM, ORTTIRILGAN TAJRIBA

Gazetamizning o'tgan sonida Mudofaa vazirligi havo-desant xizmati mutaxassislari ishtirokida ikki haftalik o'quv yig'ini bo'lib o'tayotgani haqida xabar bergan edik. Unga ko'ra, birinchi haftadagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar Mudofaa vazirligi "Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv-mashqlar markazida o'tkazilib, yig'inning ikkinchi haftasi "Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida olib borildi.

O'quv yig'iniga Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan havo-desant xizmati mutaxassislari jalb etilgan bo'lib, ular bu yerda o'z tajriba va mahoratlarini sinovdan o'tkazib qaytgach, o'zlari xizmat qilayotgan harbiy qismlarda parashyut bilan sakrashlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'ladi.

Shu bois yig'in davomida havo-desant tayyorgarligi holati, bo'linmalarining vazirlik qo'shinlari tarkibida tutgan o'zni va mutaxassislarning tayyorgarlik darajasi, xalqaro ArMI-2021 o'yinlari doirasida o'tkazilgan "Desant vzvodi" musobaqasidan olingan tajriba, joriy yilgi musobaqaga ko'rilayotgan tayyorgarlik darajasi muhokama qilindi. Shuningdek, xorijiy davlatlar armiyalarining havo-desant qo'shin(bo'linma)larini tayyorlashdagi ijobiy tajribalari, havo-desant bo'linmalarini zamonaviy janglarda qo'llanilishi va ularning taktik harakatlari bo'yicha ham fikr-mulohazalar almashildi.

"Markaz" desantchilar tayyorlash bazasida harbiy xizmatchilar bir nechta bosqich bo'yicha sinovlardan o'tkazildi. Ular bo'ysunuvchi bo'linmalarda havo-desant tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillashtirishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish, yuk va odam uchun mo'ljallangan parashyut tizimlarini taxlash bo'yicha me'yorlarni topshirish, test sinovlari, o'quv-mashq, sport va maxsus parashyut tizimlarini taxlashga ruxsat berish uchun nazorat tekshiruv mashqi kabilar shular jumlasidandir.

O'quv yig'inida ishtirok etganlarning deyarli hammasi bir-birini yaxshi taniydi. "Huuv qo'lida qog'oz tutgan kishini ko'ryapsizmi? U uch mingga yaqin parashyut bilan sakrashni amalga oshirgan. Mohir desantchi! Qolganlarning natijasi ham unikidan qolishmaydi", deydi yonimda turgan bir yig'in ishtirokchisi. Farg'ona viloyatida joylashgan harbiy qismlarning biridan tashrif buyurgan mayor Yusufjon To'rayev esa shunday deydi:

– Bu yerda yil davomida parashyut bilan sakrashni tashkillashtirishdagi belgilangan barcha me'yorlarni topshiryapmiz. O'quv yig'inimizning mazmunini sodda qilib aytadigan bo'lsam, barcha tayyorgarlik va me'yorlarni bajarib, ruxsatnoma bilan o'z harbiy qismimizga qaytamiz. U yerdagi bo'linma shaxsiy tarkibining jismoniy tayyorgarligi va belgilangan me'yorlarni bajarishiga qarab, parashyut bilan sakrashi uchun biz ruxsatnoma

beramiz va amaliy sakrashlarni o'tkazamiz. Shuning uchun bu yerda aytilayotgan har bir so'z, har bir element diqqat markazimizda. Hech narsani ko'zdan qochirmaslikka harakat qilyapmiz.

O'quv yig'ini yakunida me'yorlarni a'lo baholarga topshirgan harbiy xizmatchilarga ruxsatnomalar berildi. Shuningdek, yil davomida havo-desant mutaxassislari tomonidan o'tkaziladigan mashg'ulotlar tartibi ham kelishib olindi.

**Leytenant  
Islomjon QO'CHQOROV,  
"Vatanparvar"**



# ALPOMISHNING BAHODIR

## SHOGIRDI

O'zi harbiy xizmatchi bo'lsa ham gapimiz adabiyotdan boshlandi. O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga kira olmaganini, bolalikdan yozuvchi yoki harbiy xizmatchi bo'lish orzusi borligini aytdi. Taqdir taqozosi bilan O'zbekiston oliy harbiy aviatsiya bilim yurtida kursantlik ham nasib qilmabdi. Keyin orzulari ro'yobi yo'lida harbiy xizmatni tanlabdi. Avvaliga muddatli harbiy xizmat, keyin biroz fuqarolik faoliyatidan so'ng rasman Vatan himoyasiga kirishibdi. Ammo yutuqlar oliy ma'lumot talab qilmas ekan.

mudofaa vaziri o'rinbosari nomidan "Tashakkurnoma" yuborilibdi. Mahallako'y kelib yaqinlarimni tabriklashibdi. Buni eshitib, ota-onamning shodligidan musobaqa mobaynidagi charchoqlarim aridi, kasbimdan faxr tuyg'usi yanada ortdi. Ular mening eng birinchi ustozlarim, – deydi III darajali serjant Bahodir Tilabov. – Hayotda ustozlarim ko'p, kimningdir yozgan kitobini o'qib saboq olasiz, yana kimdandir maslahat. Rostini aytsam,

Xullas, maqolamiz qahramoni 2021-yili Qurolli Kuchlar miqyosida o'tkazilgan "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovining "Eng ilg'or serjant" nominatsiyasining mutlaq g'olibi III darajali serjant Bahodir Tilabov. U 1982-yili 6-avgustda Jizzax viloyatining Jizzax shahrida tug'ilgan. Zafarobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabida tahsil olgan. Otasi Samandar aka, onasi Oybahor opaning o'g'itlari bilan kitobga oshno bo'lib ulg'aygan. Sport bilan muntazam shug'ullanmaslikni tasavvuriga ham sig'ira olmaydi.

Yana suhbatimizga qaytadigan bo'lsak:

– Mening nazaramda yozuvchiga ham Vatan himoyachisiga ham qo'yiladigan eng birinchi talab – pok bo'lish. Yozganlaring bilan amaling bir xil bo'lishi kerak. Harbiy xizmatchi esa ishonib topshirilgan Vatan tuprog'ining gardiga ham xiyonat qilishni xayoliga keltirmasligi shart. Balki, nafaqaga chiqsam, o'zimni yozuvchilik borasida sinab ko'rarman, lekin bugun menga ulug' vazifa yuklatilgan ekan uni sidqidildan bajarish harakatidaman, – deydi u.

III darajali serjant Bahodir Tilabov qirqni qoralab qolgan bo'lsa ham o'zini sinab ko'rishdan cho'chimaydi. Bu yo'lda unga dalda berib turgan ustoz podpolkovnik Alpomish Jo'rayevdan, harbiy qism rahbariyatidan minnatdor ekanini ta'kidladi. Mana bir necha yildirki u "Eng ilg'or mutaxassis" ko'rik-tanlovida faxrli o'rnlarni egallab kelmoqda.

Ilk urinishini 32 yoshida "Eng ilg'or guruh komandiri"ga da'vogarlikdan boshladi va 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Kelgusi yili esa "Eng ilg'or serjant" nominatsiyasida 2-o'ringa munosib topildi. 2016-yilgi musobaqa shiddatli kechdi. III darajali serjant Bahodir Tilabov ofitserlar orasida o'tkazilgan "Eng ilg'or

guruh komandiri" nominatsiyasida birinchilikni qo'lga kiritdi.

2018-yil "Eng ilg'or serjant" nominatsiyasida 1-, 2019-yili ushbu yo'nalishda 2-, 2020-yili esa 1-o'rinni egalladi. 2021-yili nafaqat Mudofaa vazirligi, balki Qurolli Kuchlar miqyosida o'tkazilgan "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovi rasman kuchli va chidamlilarni saraladi. Mazkur musobaqada ham maqolamiz qahramoni "Eng ilg'or serjant" nominatsiyasining mutlaq g'olibi bo'lishga erishdi.

O'zaro suhbatimiz oila, farzand tarbiyasiga ulanib ketdi. Bolalarini ham sportga oshno qilibdi. O'tgan 2021-yili Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilgan "Mening oilam sportchi" musobaqasida

oilaviy ishtirok etishibdi. Unda g'oliblar safida bo'lmasa ham "Eng zukko oila" nominatsiyasini qo'lga kiritganini aytdi. O'g'illari Behruz va Shohruz esa ushbu tanlovning yoshlar o'rtasida o'tkazilgan estafeta shartida 1-o'rinni egallabdi. Ularning har ikkalasi I DAN qora belbog' sohibi ekan.

O'ni kelganda aytib o'tish kerakki, san'at shaydosi bo'lgan Doni Zokirov nomidagi musiqa maktabining 5-sinf o'quvchisi Behruz Samandarov Milliy cholg'u yo'nalishida o'tkazilgan xalqaro tanlovda ikki marotaba (2020–2021-yillar) 2-o'rinni qo'lga kiritibdi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkazilgan badiiy gimnastika bo'yicha O'zbekiston chempionatida qizi Parizoda Samandarova faxrli 2-o'ringa sazovor bo'libdi.

– Qilingan mehnatlar samarasini ko'rishdan ortiq rohat yo'q. O'tgan yili "O'z kasbining ustasi" ko'rik-tanlovi g'olibi bo'lganim munosabati bilan ota-onamga

musobaqadagi raqiblarimni ham ustoz, deb bilaman. Ulardan juda ko'p narsa o'rganganman.

Ijodiy ma'noda hozircha hamkasbimiz bo'lmay qolgan "Eng ilg'or serjant" bilan xayrlashmadik. Mutolaa uchun kitoblarni ayriboshlashni boshladik. Kelgusida gazetamiz sahifalarida yoki kitoblarda Bahodir Tilabov ism-familiyasiga ko'zingiz tushib qolsa, hayratlanmaysiz, degan umiddamiz.

Kapitan Aziz NORQULOV,  
"Vatanparvar"



## O'ZBEKISTONDA



## YANGI LOYIHALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-yanvar kuni yoshlar, sport, sog'liqni saqlash, elektr energiyasi sohasidagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

28-yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida sportni ommalashtirish bo'yicha qator ko'rsatmalar bergan edi. Taqdimotdagi loyihalar shuning mantiqiy davomi bo'ldi.

Mutasaddilar avvalgi topshiriqlarga muvofiq, bu borada mahalla va maktablardagi sharoitlar o'rganilgani haqida axborot berdi. Davlatimiz rahbari yangi maktablar qurish va mavjudlarining quvvatini oshirish bo'yicha topshiriq bergan edi. Shunga asosan, 330, 660, 990, 1 320 va 1 650 o'rinli maktablar loyihasi tayyorlangan.



## SENATNING YALPI MAJLISI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirma uchinchi yalpi majlisi 2022-yil 3-fevral kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Senat majlislar zalida o'z ishini boshladi.

Majlisda dastlab Senat qo'mitalarining 2021-yilgi faoliyati sarhisob qilindi. Senat raisi o'tgan yilgi faoliyat haqida to'xtalar ekan, tanqidiy-tahliliy yondashdi.

Joylardagi ayrim senatorlar o'zlari mansub qo'mitalardan uzilib qolayotgani, hududlardagi muammolarni parlamentga ko'tarib chiqishda sustkashlikka yo'l qo'yayotgani ta'kidlandi. Faoliyat davomida parlament nazorati institutidan samarali foydalanish, har jabhada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash muhimligiga e'tibor qaratish lozimligi aytili.

Yalpi majlis "O'zbekiston" va "Uzreport" telekanallari, shuningdek, Senatning www.senat.uz rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali to'g'ridan to'g'ri yoritib borilmoqda.



## AN'ANAVIY O'QUV JARAYONI BOSHLANADI

So'nggi kunlarda yurtimizda koronavirus infeksiyasi bilan kasallanish holati kamayayotgani kuzatilmoqda.

Respublika maxsus komissiyasi tomonidan ushbu jihatlar inobatga olinib, bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2022-yil 7-fevraldan boshlab umumta'lim maktablari, professional, kasb-hunar ta'lim va oliy ta'lim muassasalari, akademik litseylar hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayoni an'anaviy shaklga o'tkaziladi.

Bunda barcha ta'lim tashkilotlarida niqob taqish, ijtimoiy masofani saqlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy rioya etish va antiseptik vositalardan muntazam foydalanish talab etiladi.

## JAHONDA

## AXBOROT URUSHI TUFAYLI



Ukraina Prezidenti Vladimir Zelenskyy hozirda rossiyalik harbiylar yaqin kelgan Ukraina chegaralaridagi vaziyat yetarlicha keskinligi, ammo o'tgan yildagidan keskinroq emasligini, shu tufayli xorijiy yetakchi siyosatchilar rossiyaliklar bostirib kirishi muqarrar ekani haqida gapirishlarini istamasligini aytdi. Uning so'zlariga ko'ra, bunday vahimalar oqibatida Ukraina iqtisodiyoti hozirgacha 12,5 mlrd grivna (440 mln dollar atrofida) zarar ko'rgan. "Axborot urushi tufayli Ukrainadan 12,5 mlrd olib chiqib ketildi. Biz valyutamizni davlat zaxiralari hisobidan barqarorlashtirmoqdamiz. Bu mamlakatimizga juda qimmatga tushmoqda", dedi Zelenskyy.

Ukraina Prezidenti Vladimir Zelenskyy hozirda rossiyalik harbiylar yaqin kelgan Ukraina chegaralaridagi vaziyat yetarlicha keskinligi, ammo o'tgan yildagidan keskinroq emasligini, shu tufayli xorijiy yetakchi siyosatchilar rossiyaliklar bostirib kirishi muqarrar ekani haqida gapirishlarini istamasligini aytdi. Uning so'zlariga ko'ra, bunday vahimalar oqibatida Ukraina iqtisodiyoti hozirgacha 12,5 mlrd grivna (440 mln dollar atrofida) zarar ko'rgan. "Axborot urushi tufayli Ukrainadan 12,5 mlrd olib chiqib ketildi. Biz valyutamizni davlat zaxiralari hisobidan barqarorlashtirmoqdamiz. Bu mamlakatimizga juda qimmatga tushmoqda", dedi Zelenskyy.

## YANA RAKETA SINOVLARI



KXDR o'rta masofaga harakatlanuvchi ballistik raketalar sinovi o'tkazilganini tasdiqladi, deb xabar qiladi Bloomberg. 30-yanvar kuni Shimoliy Koreyada so'nggi 5 yillikdagi rekord masofaga yetib borgan ballistik raketa uchirilgan. Chagando provinsiyasidan uchirilgan raketa 30 daqiqa mobaynida Yer yuzasi bo'ylab 800 kilometr masofaga uchgan va dengizga qulashdan avval 2000 kilometr balandlikka ko'tarilgan, so'ngra Yaponiya iqtisodiy zonalariga chegaralaridan tashqariga qulgan. Ma'lumotlarga ko'ra, uchish vaqtida raketaning maksimal tezligi 16 Max', ya'ni tovush tezligidan 16 marta yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan.

## KUCHLI QOR BO'RONLARI



AQShning sharqiy sohillarida kuchli qor bo'ronlari tufayli ko'plab binolar va shaharlar elektr ta'minotidan uzilib qolgan, 5 mingga yaqin aviareys bekor qilingan, deb xabar qiladi CNN. Massachusettsda 120 000 ga yaqin aholi kuchli qor sabab elektr ta'minotidan uzilib qolgan. Nyu-Jersining ayrim hududlarida bir futdan baland qor tushgan. Nyu-Yorkda ham tinmay qor yog'moqda, shahar aholisiga uzoq yo'lga safarga chiqmaslik tavsiya etilgan.

Atlantik-Siti ma'muriyati 40-shossenini, ya'ni shaharga olib boradigan asosiy arteriya tomiri hisoblangan yo'lni yopishga qaror qilgan. Kuchli qor bo'ronlari haqida jami 11 million aholiga ogohlantirishlar berilgan.

## TO'QNASHUVLAR DAVOM ETMOQDA



Suriyada ISHID jangarilari va kurdlar o'rtasidagi to'qnashuvlarda yuzdan ortiq odam halok bo'ldi. Kurdlar Suriyaning Xasaka shahridagi Gvayran qamoqxonasini egallagan va u yerdagilarni garovga olgan. Bu haqda France 24 xabar bergan. Qayd etilishicha, AQSh qurollari va kiyimlaridagi kurd otryadlari bir necha kundan beri ISHID terrorchilariga qarshi jang olib bormoqda. 100 ga yaqin jihodchi Gvayrandagi qamoqxonaga hujum uyushtirgan va u yerdagi mahbuslarni, xususan, o'z sheriklarini ozod qilishga uringan. Janglar oqibatida 160 ga yaqin odam halok bo'lgan va ular orasida yetti nafar tinch aholi vakillari ham bo'lgan.

## MINTAQADA



## YENGIL AVTOMOBILLAR IMPORTI

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston 26 ta xorijiy davlatdan qiymati 588,2 mln AQSh dollariga teng bo'lgan qariyb 27 067 ta yengil avtomobil, shu jumladan, 809 ta elektromobil import qilgan. Yengil avtomobillarni eng ko'p import qilgan davlatlar orasida Xitoy yetakchilik qilmoqda – 8 880 ta mashina. Mos ravishda 6 472 ta avtomobil import qilingan Koreya va 4 539 ta avtomobil olib kelingan Rossiya ikkinchi va uchinchi o'ringdan joy olgan. Keyingi o'rinlarda Qozog'iston (4 470 ta), Polsha (1 204), AQSh (490), Litva (428), Tailand (250), Germaniya (115) va Yaponiya (97) qayd etilgan.



## TARKIBDA KATTA O'ZGARISHLAR

Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev yetakchi "Nur Otan" partiyasining yangi rahbariga aylandi. Tashkilotning navbatdan tashqari o'tkazilgan syezdida qatnashgan barcha delegatlar uning nomzodi uchun ovoz bergan. Bu haqda "Nur Otan" matbuot xizmati Kz.Todayga ma'lum qilgan. Shuningdek, yig'ilish davomida partiyaning siyosiy kengashi tarkibida ham katta o'zgarishlar sodir bo'lgan, ya'ni oldingi tarkibning yarmidan ko'p qismi yangilangan, shu jumladan, davlat amaldorlari soni sezilarli qisqartirilgan. Ta'kidlash joizki, "Nur Otan" rahbarligiga Toqayev nomzodini sobiq prezident Nursulton Nazarboyev taklif etgan.



## IQLIMGA MOS RAVISHDA

"Tolibon" hukumati Afg'onistonda talabalar uchun universitetlarni qayta ochishga ruxsat berdi. Bu haqda "Tolibon" harakati tomonidan tayinlangan muvaqqat hukumatdagi Oliy ta'lim vazirligi rahbari Abdul Boqi Haqqoniy vazirlikning Facebook sahifasida e'lon qilingan videomurojaatida ma'lum qilgan. Uning so'zlariga ko'ra, iqlimi issiq bo'lgan viloyatlardagi barcha oliy ta'lim muassasalarida darslar 2-fevraldan, iqlimi sovuq bo'lgan viloyatlarda esa 26-fevraldan boshlanadi. Vazir qizlarning darslarga kirishiga ruxsat berilishi yoki berilmasligiga aniqlik kiritmagan.



## MUHIM HUJJATLAR IMZOLANDI

Turkmaniston delegatsiyasining Kobulga tashrifi doirasida Turkmenenergo davlat korporatsiyasi va Afg'onistonning DABS davlat energetika kompaniyasi vakillari tomonidan Afg'onistonga elektr energiyasi yetkazib berilishini kengaytirish borasidagi shartnoma imzolandi. Shuningdek, mazkur tashrif davomida yuqorida ko'rsatib o'tilgan kompaniyalar va Turkiyaning Zalik Holding xoldingi o'rtasida energetika sektori salohiyatini oshirish bo'yicha protokol ham imzolandi. Uchrashuvlar jarayonida Turkmaniston – Afg'oniston – Pokiston elektr liniyasi, shuningdek, quvvati 500 kV.ga teng bo'lgan Shebergan – Dashti – Alvan liniyasi loyihasini amalga oshirish mavzusiga ham alohida e'tibor qaratildi.

## ҚАДРДОН СЎЗ —



## ҚАДРЛИГИМ СЎЗ

“  
**Б**угуннинг болалари ҳам дostonлар тинглармикан? Сиз-чи, сиз дostonлар тинглаганмисиз? Хонадонингизда Хитойнинг энг асл чинилари бор, биламан, балки ҳамма буюмларингиз Оврўпоники чиқар. Ҳашаматли, балки сипороқ шкафларда халқ дostonлари учун ҳам жой ажратганмисиз? Қахрамонлик, мардлик, муҳаббат, меҳр-оқибат, олижанобликни тараннум этган дostonлардан қайси бирини биласиз? Номларига эътибор берганмисиз? Кўп савол беряпман, бежиз эмас. Чунки... ўзим тинглаган дostonлардан болаларимни бахраманд этолмадим. Тирикчилик ташвишларига қул бўлдим. Афсус...

”  
Аслида менинг ота-онам ҳам жуда банд эдилар: онам рўзғорнинг битмас-туганмас юмушлари, дала ва томорқа ишларидан ортмасдилар, отам сахар кетиб, кеч қайтар эдилар. Бахтимга опаларим, акаларим китобсевар бўлишган. Айниқса, катта опам (охиратлари обод бўлсин) Шаҳодатпошшо онадан туғма муаллима эдилар.

...Уйимизнинг ғаройиб печкаси бор эди. Бирданига учта хонани иситар эди. Назаримда печка жуда катта эди. Чунки опам печка устида атрофларига болишлар кўйволиб ўтирардилар, бир томонларида бир тахлам китоб, қуйида биз опа-укалардан ташқари кўни-қўшиллар, қариндош-уруғларнинг болалари – тизилишиб ўтирганча печка устида ўтирган дostonчидан дoston тинглардик. «Ширин билан Шакар»да шумкампирага қирқин қизлар бўкунича қовун едириб, сўнг ичини эзиб ташлашганида қотиб-қотиб кулганларимиз, «Кунтуғмиш»даги дарёдан ўтиш воқеасида болаларини бўрига олдириб қўйганида, «қўприқдан ўтса бўлмайдими?» деб ҳиқиллаган кичкинлар...

Бу дostonлар атрофимизда юз бераётгандек эди, бегона олам эмас эди. Атрофимизда яйловлар ҳам, баҳор чоғи пишқариб оқадиган дарёлар ҳам мавжуд эди-да! Ҳаммамизга тушунарли, қадрдон сўзлардан иборат эди. Тили ота-оналаримиз тилидек, бегона сўзлар йўқ эди!

Бугун сизга «Алпомиш» дostonини ўқиш учун тавсия қиламиз. Азиз ўқувчи, бугун ижтимоий тармоқларда ўзбек сериаллари ҳақида турфа фикрлар авж олганидан хабарингиз бор. Бу ҳақда сўз айтишдан тийиламиз. Нега, дейсизми? Чунки ҳаммада танлов ҳуқуқи ва имконияти бор. Негадир биз телевизор дастурларни оилавий кўришни ёқтираемиз. Аслида ҳамма нарса ҳам оилавий кўришга мўлжалланмаган. Буни фарқлаш учун инсонда етарли билим, фаҳм-фаросат ва ички маданият бўлиши керак. Оилавий давралар учун энг яхши ва мароқли дам – китобхонлик. Агар болаларингиз кичик бўлса, халқ дostonларини ўқинг, каттароқ бўлса ҳам халқ дostonларини ўқинг! Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи бир туркум гўзал дostonларни нашрдан чиқарган. Бу наинки гўзал тарбия балки болалар ҳаётидаги энг унутилмас, файзли, нурли лаҳзалар бўлиб қолади, ишонинг!

Сиз «Алпомиш» дostonини биласиз, мактаб дарсликларидан ҳам бу қадимги ёдгорликдан парчалар ўқигансиз. Балки фильмини ҳам кўргандирсиз? Аммо дostonни ўзингиз ўқиб чиқмагунингизга қадар барибир унинг қимматини англашингиз мушкул. Мен бу дostonни тинглаганман, ўқиганман. Бирок, биласизми, турк туркуларидан (халқ қўшиқлари) «Эрисин тоғларнинг қори»ни севиб тинглардим, бу халқ кўшиғи ҳам айнан шу дostonдан эканлигини яқинда билдим, ўқиб, ҳайратим ошди. Бежиз севмаган эканман, ақлимдан аввал бу мисраларни қалбим таниган экан!

Ака-ука Бойсарни ва Бойбўрини танитишим шарт эмас, деб ўйлайман. Сизга қандай қилиб Ҳакимбекнинг Алпомиш номини олганлиги ҳақидаги парчани келтирамиз. **Ўқиймиз:** «Шунда Ҳакимбек етти ёшига кирган. Алпинбий бобосидан қолган ўн тўрт ботмон биричдан бўлган парли ёйи бор эди. Ана шунда Ҳакимбек шул ўн тўрт ботмон ёйни қўлига ушлаб, етти яшар бола кўтариб тортди, тортиб қўйиб юборди. Ёйнинг ўқи яшиндай бўлиб кетди. Асқар тоғининг катта чўққиларини юлиб ўтди, овозаси оламга кетди. Буни эшитган душманлар: «Бу бола зўр бўпти, назар топибди. Буларга ҳеч ким баробар бўлмайди, етти яшар бола шундай ишни қилами?» деб хафа бўлиб ётди. Дўстларнинг вақти хуш бўлиб юрди. Шунда барча халойиқлар йиғилиб келиб айтди: «Дунёдан бир кам тўқсон алп ўтди, алпларнинг бошиғи Рустами Дoston эди, охири бу Алпомиш алп бўлсин. Тўқсон алпнинг бири бўлиб санага ўтди», деди. Охири Алпомишбек алп бўлиб, тўқсон алпнинг бири бўлиб санага ўтиб, алплик отини кўтариб, етти ёшида Алпомиш от қўйилди. Ана шундан етти ёшида ёйни кўтариб отгани учун Алпомиш алп атанди».

Ўқувчиларимизга аёнки, ҳеч қачон асар мазмунини баён этмаймиз, мутолаа завқига путур етказмаслик учун. «Алпомиш» дostonи ҳам бундан мустасно эмас. Бу бебаҳо ёдгорликнинг айрим қахрамонларига ҳам эътиборли бўлишингизни тавсия этамиз. Мен учун Алпомиш ва Ойбарчин севимли. Аммо Алпомишнинг синглиси Қалдирғочни ҳам ўзгача меҳр билан севаман. Азиз аёл-қизлар, Қалдирғоч асли ҳаммамиз. Миллатнинг боши – Аёл деб бежиз эътироф этилмайди. Тарбиячи, улуг ва шарафли ишлар, йўлларга йўлловчидир, Аёл.

Туғилганидан Алпомишга бешиккертки қилинган Ойбарчин қалмоқлар элида вояга етди. СўЗ қудратига шак йўқ. Эндиликда бўлар-бўлмасга ишлатилган айрим сўзлар қийматини, залворини йўқотгандек. «Келгинди» деган сўз бор тилимизда. Бу даҳшатли сўз, эшитган одамни титроққа соладиган, қалбига оғриқ соладиган ўқ каби бир сўз. Ҳозир бу сўз ҳам бироз жўнлашган.

Дostonда қалмоқлар бир вақтлар Кўнғирот элининг эркаси бўлган Бойсарига «келган бой» деб

муружаат қилдилар. Унинг қизи Барчиной нопи-сандларча ёт элда талаш бўлди. Шундай оғир вазият юзага келдики, бу вазиятга доно Ойбарчиннинг ўзи ечим топди. Зукколик билан олти ойга муҳлат олди ва ўз элчиларини мактуб билан Алпомиш ҳузурига йўллади. Жуда қийинчилик билан келган хабарчиларни Бойбўри қаршилади, едирди, ичирди... ва Алпомишга аталган хатни сандиққа солиб беркитди.

**Ўқиймиз:** «Бойбўри айтди:

– Бундан кетганча, Кўнғирот музофотидан ўтганча, Қалмоқ вилоятига етганча. Ё бир ўтинчига, ё бир подачига, ё чўлда юрган чўпонга биз Барчиннинг чопари бўлар эдик», деб оғзингдан чиқарсанг, одам буюраман, кейинингдан қувиб етади, бошингга қамчи чотади, баданингни бўздай қилиб йиртади, опкелиб дорга тортади, оғзингдан чиқармай кетгин, – деб бу сўзни тайинлаб чопарларга айтиб турган сўзи:

Ҳакимбекни сўраб арза берибди,  
Билдим Барчин той-талашда қолибди,  
Қалмоқлардан кўп бир азоб кўрибди,  
Унга бойбаччалар меҳнат қилибди,  
Хизмат қилиб ўнта чопар келибди.  
Чопарлар, эшитгин айтган ноламни,  
Обод қилган бунда кулбахонамни,  
Барчин учун юбормайман боламни.  
Қайтай, қилса қалмоқ қаттиқ зулмни,  
Баҳор бўлса тар очилган гулимни,  
Барчин учун юбормайман улимни.  
Майдон бўлса бедов отлар чопилар,  
Чопиб келса банот жуллар ёпилар,  
Бормасин, ўғлима хотин топилар».

Чопарларнинг шу тариқа сандиққа солинган хатини Алпомишнинг синглиси Қалдирғоч топиб олди. Акасига билдирди. Алпомиш бу хабарни ўқиб, дарҳол йўлга отланди... Йўқ, йўқ...

**Ўқиймиз:** «Бу хатни ўқиб кўриб: «Олтойчилик йўлда бўлса, қалмоқнинг элида бўлса, зўр ёвнинг қўлида бўлса, бир хотин оламиз, деб сандираб ўламизми», деб хатни тиззасининг остига босиб ўтирди».

Бу ҳолатга Қалдирғоч оиймнинг сўзларига эътибор беринг-а: «Қалдирғоч оийм акасига қараб, бир сўз айтиб турган экан:


Ака, сенга айтадиган арзим бор,  
Талаш бўпти бийнинг қизи зулфакдор.  
Кечасини ёруғ қилар тўзин ой.  
Кашалда талаш қопти Барчиной.  
Мард йигитнинг ёри талаш бўлами.  
Эр йигитнинг ёрин қалмоқ олами,  
Барчин чечам талаш бўлиб қолами,  
Сендай беклар бул беҳабар турами?  
Келар дебди, сендан умид қилибди».

Булар ҳаммаси эмас, Қалдирғоч оиймнинг бундан-да ўткир-аччиқ сўзлари Алпомишни оёқлан-тирди.

Ўзбек халқининг ноёб ёдгорликларидан бири бўлган «Алпомиш» ҳақида сўз айтмоқ учун асли бир саҳифа камлик қилади. Гўзал сўз ўйинлари, мақолларнинг ўзи бир олам. Бугун биздан тобора узоклашиб бораётган, шевалардагина мавжуд қанчадан-қанча сўзлар бор, дostonда. Бу севги дostonи, мардлик, олижаноблик, дўстлик, бағрикенглик тараннуми! «Алпомиш» энг қимматли хазина каби ҳар бир ўзбек хонадонидан жой олса, нур устига нур бўларди. Кўнғингиз тўлмаётган сериалларни ўз ҳолига қўйинг, халқ оғзаки ижодининг ноёб дурдоналарига қалбингиздан жой беринг.

Ҳузурли мутолаалар тилаги билан,


Инобат ИБРОҲИМОВА,  
«Vatanparvar»



Синчков газетхонларимиз талаб қилганидек «Ҳарбий либосдаги маънавият» анчадан буюн нашр юзини кўрмай қўйди. Дунёнинг поёни йўқ ташвишлари одамларни гоҳида умуммиллий, умумбашарий ишлардан чалғитади. Улуғ бобокалонимиз ҳазрат Алишер Навоийнинг таваллуд санаси арафасида ушбу рукнимизни давом эттиришни ният қилдик. Улуғ шоирнинг ҳарбий хизмат билан алоқадор ҳаёти ҳақида ёзишга қурбимиз етмайди, албатта. Шу воис ҳам Алишер Навоийнинг ўн жилдлик тўла асарлар тўпламини нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррирларидан бири, Халқаро Аҳмад Яссавий мукофоти совриндори, филология фанлари номзоди Сайфиддин Рафиддиновнинг ҳарбий хизмат даври, Ватан ҳимоячилари билан боғлиқ мулоҳазалари билан танишдик.

# БЕДОР ЎТКАЗИЛГАН КЕЧА

Сайфиддин Рафиддинов билан суҳбат кўнглимизни ёритар, уларнинг бари эслаб қолишга, ибрат олишга тиришардик. Ҳар бир ибратли воқеани ҳаётимизга муқояса қилар, хато-камчиликларимизни тушунган-



**Сайфиддин Рафиддинов 1958 йили Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз туманида таваллуд топган. Самарқанд давлат университетининг Ўзбек ва тожик филологияси факультетини, Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институтини тамомлаган. Ўзбекистон Фанлар академиясининг Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институтининг етакчи илмий ходими. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, Грециянинг Антик дунё халқаро илмий академиясининг профессори. Кўплаб муаллифлик ва таржима китоблари, изоҳ ва луғатлари чоп этилган. 1976–1978 йилларда собиқ Германия Демократик Республикасида ҳарбий хизматни ўтаган.**

дек бўлардик. Саволлар бир-бирига уланар, не-не улуғ зотларнинг илмидан, кароматларидан ҳайратланардик. Эҳ-хе, юртимизда қандай олимлар, уламолар ўтган! Афсуски, уларнинг аксариятини танимаймиз, улгу оладиган ишларини билмаймиз, эшитганларимизни ҳам бир ривоятдек қабул қиламиз. Аслида улар ҳам сиз билан бизга ўхшаган одамлар. Энг катта фарқлари нафслари устидан ғолиб чиққан.

Гап айланиб, тинчликнинг қадри, Ватан осойишталиги йўлидаги хизматнинг бемисл баҳоси, олимнинг ҳарбий хизмат давларига уланди.

– У даврларда фарзандини армияга кузатишни ота-оналар катта бир фожиадек қабул қиларди. Ҳақиқатан ҳам уларнинг ҳаёти, егулиги, кийим-кечаги қафолатланмаганди. Йигитлар таваккал тўнини елкага ташлаб чиқиб кетишарди. Ана шундай замонда икки йиллик муддатли ҳарбий хизматни собиқ Германия Демократик Республикасида ўтаганман. У ерда ўтказган кунларимизни одам боласининг бошига солмасин. Ҳатто биздан аввалроқ борган аскарлар ҳам кўзимизни очирмасди. Ойлик маошимиз бир йилгача қўлимизга тегмаган. Аёвсиз калтакларни эсласам, ҳозир ҳам этим жунжикиб кетади. Бу ҳақда гапиргим ҳам келмайди, – дея бир оз тин олади суҳбатдошимиз. – Сержантлардан бири жуда ҳам жонимдан тўйдириб юборди. На гапга тушунади, на бундайроқ дўққа. Бир куни курул билан хизмат ўтаётганимда келиб қолиб, яна зуғумини бошлади. Алам билан уни мўлжалга олдим: «Менда нима қасдинг бор? Ҳозироқ сени отиб ташлайман!» Каловланиб нима дейишини билмай қолди. Ўшанда ўзимни тутиб, жаҳлимни ўловлай олганимга ҳозиргача шукр қиламан. Лекин бошқа менга танбех бермайдиган бўлди.

Турли-туман юмушлардан кўпчилик безир, ҳолдан тоярди. Ёшлигимдан қишлоқда, қора меҳнатда ўсганим, жисмонан чиниққанам менга

кўп наф берарди. Унча-мунча ишни қийналмасдан бажарардим. Кураш тушиб қолсақ, майдонни бермасдим. Ўзи жисмоний тарбия билан шуғулланишни қанда қилмаслик, одатга айлантириш керак. Айниқса, илм билан шуғулланадиган одамлар, ўтириб ишлайдиганлар спортга ошно бўлишлари шарт. Тарихга назар солсангиз, улуғ аждодларимиз қомусий билим соҳиб бўлиш билан биргалликда, жисмонан бақувват бўлган, таботатни мукамал ўзлаштирган. Яқин замондошимиз Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, ўтган асрда яшаб ўтган Алихонтўра Соғуний жисмонан



ҳам забардаст инсон бўлган. Кучли мўмин кучсиз мўминдан афзалдир, деган ҳадис борлигини эслаб, спорт билан ошнолик ҳам савобли иш.

Ҳарбий хизмат давомида отиш маҳоратим, кўникмаларим анча шаклланди. Бора-бора жанговар топшириқларни мукамал даражада бажарадиган бўлдим. Танкда йўналтирувчи бўлиб хизмат қилдим. Ҳозир ҳам ўшанда қилган ишларимиз кўз олдимда турибди. Агар яна тўғри келиб қолса, ҳеч адашмасдан топшириқни тўлақонли уддалаган бўлардим.

Сайфиддин Рафиддиновнинг ғайрати ҳали сусаймаган. Туну кун тиним билмайди. Алишер Навоийнинг 10 томлик тўла асарлар тўпламини тайёрлаш жараёнидаги жонбозликлари, ўзини, саломатлигини аямасдан ишлаганлари, бир вақтнинг ўзиде ўнта, ўн бешталаб китобларни нашрга ҳозирлашга тўғри келганини, ўшанда ҳам чекинмай меҳнат қилганликларини эшитиб, ҳайратландик.

Иш сал кўпайиб, озгина қийналсақ, дунёни бузгудек оҳ-воҳ қилишимизни ўйлаб, ич-ичимизда хижолат бўлдик.

– У даврлардаги қийинчиликларга ҳозирги ёшлар дош бера оладими, йўқми, бир нарса дейиш қийин. Яширмайман, ноўрин ишлар қилишга ҳам тўғри келган. Бошқалардан ажралиб қолсанг, кўрқоққа, сотқинга чиқаришади. Маҳаллий халқдан шикоят ҳам бўлиб турарди. Бир гал арз-дод билан келишибди. Ҳаммамизни сафлаб қўйишди. Хавотир билан турибмиз, уларнинг биргина ишораси тақдиримизни ҳал қилади. Барака топшисин, эслолмагани учун «мана шу» деб аниқ бир кишини кўрсатмади, – дея бир оз ўйга толди устоз. – Орадан бир йил ўтиб, биз ҳам ўша пайтнинг тилида айтганда, «дембл» бўлдик. Энди ўзимизга бириктирилган янги

келганларнинг маошини олардик. Қайтар дунё. Хизмат тугаш арафасида, виждоним қийналди. Чидолмадим. Қўл остимдаги аскарни чақириб, розилик сўрадим. Йўқса, пулларини қайтиб беришга тайёрлигимни айтдим. Мени тўғри тушунди, у ҳам вақти келганда бошқалардан олишини, рози эканини айтди.

Ўша йилларда бошқа ўлкаларда, ноқулай шароитларда ҳарбий хизматни ўташга мажбур бўлганмиз. Тақдиримиздан яқинларимиз мутлақо беҳабар бўларди. Мактуб ёзишардик. Унда ҳам дардингни дастурхон қилиб, уйдагиларни хавотирга қўймайсан-ку.

Бугунги ёшлар ўз Ватанамиз сарҳадларини қўриқлапти. Ҳарбий қисм ва муассасаларда яратилган шароитларга ҳавасингиз келади. Истаган одам бориб кўриши, танишиши мумкин. Халқ ва армия – якдил. Ота-онаси, ака-укаси, опа-синглиси, яқинлари, юртдошлари яшаётган, киндик қони тўкилган заминини асрашга масъул ёшларимиз бунга жиддий ёндашишлари лозим. Улар Ватан осойишталиги йўлида бедор ўтказилган бир кечанинг бемисл савобини ҳис қилиши керак. Ҳарбий хизматчиларимиз сергак экан, осойишталик, тараққиёт бўлади, илм олинади, ободлик, фаровонлик таъминланади. Уларни ҳамиша алқаймиз, куч-қувват тилаймиз!

**Азиз НОРҚУЛОВ ёзиб олди.**





# KOMIL INSON TALQINI

**O'n ikki yoshida taxtga o'tirgan buyuk temuriy Zahiriddin Muhammad Bobur butun umr kurashib yashadi. Temuriyzodalar orasida nifoq o'rnida do'stlik, hamjihatlik o'rnatish yo'lida zahmat chekdi. Uning adolati, xalqparvarligi davlatining gullab-yashnashiga xizmat qildi.**

Davlat ishlaridan ajralmagan holda she'riyat va adabiyot bilan shug'ullangan. Bobur farzandlari tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi. Chunki temuriy shahzodalar orasidagi tarqoqlik va boshqa muammolar uni qayg'uga soladi.

Ayniqsa, Husayn Boyqaroning o'z o'g'illari bilan nosozligi, toj-taxt uchun talashlari ham Bobur uchun katta ibrat bo'lgan. Uning nazarida Boyqaroning davlat boshqaruvidagi muhim bir kamchiligi o'g'illarining birini boshqasidan ustun qo'yishida edi. Bu esa mamlakatni yagona siyosat bilan boshqarishga imkon bermaydi. Bobur saltanat uchun kurashda mardlik, oriyat mezon bo'lishini uqtiradi. Mirzo Bobur gohida shohlikdan beklilikni ustun qo'yadi:

*Qolmadi hurmat ahli olamda,  
Olam-u olam ahdidan yuv ilik!  
Boburo, ikki podsholig'din  
Yaxshiroq bu zamonda bir beklilik.*

Bobur benihoya irodali va juda kuchli ruhiyat egasi edi. Biz mana shu asosga tayanib, shunday xulosaga keldik: kishining savodsizligi, turli aqidalarga mukkasidan ketishi uni o'zgalar fikriga ergashadigan, ma'naviy mo'rt va ruhan

o'z qilib qo'yadi. Zahiriddin Muhammad Bobur ayni mana shunday "yuraksiz el"ni jur'atga, bir maqsad yo'lida birlashishga, hind elida Temuriylar saltanati nomini oqlashga chaqirgan. Bu da'vat shoh Boburning qalb nidosi edi. Xuddi shu nido Bobur dunyoqarashining, shoh Bobur faoliyatining mohiyatini tashkil etadi.

Bu adolatsiz dunyoda Bobur doimo yaxshilik izlagan. Ulkan bir davlatda barchaning ko'nglini topish imkoni yo'q. Biroq mudom barcha yaxshiliklariga yomonlik, vafosiga jafo ko'rish Boburni charchatgan. Odamlardagi gumrohlik, faqat shaxsiy manfaatdan kelib chiqib voqealarga baho berish, xulosa chiqarish har qanday sabr-bardoshli kishini ham muvozanatdan chiqarishi mumkin. Boburning quyidagi ruboiysi ana shunday nohaqliklardan charchagan vaqtida yozilgan.

*Ne xesh meni xushlar-u ne begona,  
Ne g'ayr rizo mendin-u ne janona,  
Har nechaki yaxshiliqta  
qilsam afsun,  
Xalq ichra yomonlig' bila men afsona.*

Boburning shohlikka bo'lgan munosabati orqali jamiyat, davlatchilik, umuman, hayotga munosabatini

belgilash mumkin. Temuriy sulton va shahzodalar, saroydagi hisobsiz beklar ko'proq boylikka ega bo'lish hirs bilan yongan bir davrda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining butun salohiyati bilan farzandlari Humoyun, Xindol, Komronni ahillikda yashash, bir-biriga sadoqatli bo'lib davlatdorlik qilishga chaqirdi. U faqat farzandlarigina emas, balki Temuriylar xonadoniga mansub barcha bek va xonzodalarning xatolarini kechirdi, ularni el oldida sharmisorlikdan saqlab qoldi. Bunday voqealar o'zining izzat-nafsigiga tekkan taqdirida ham, u agar shunday ish tutilsa, turli darajadagi sultonlarni, beklarni birlashtirish imkoni bo'ladi, degan aqidaga amal qildi. Bu aqida Zahiriddin Muhammad Bobur nazarida Amir Temur saltanatini qayta tiklash, uni dushmanlardan himoyalashning muhim chorasi hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning insoniy fazilatlaridan yana biri u qarindosh-urug'laridan mehr-muruvvatini ayamasi, do'stlarining tashvishiga hamdardlik qilar va quvonchlariga sherik bo'lar, o'g'illarining hammasiga birday mehr bilan qarar edi.

Bobur hamisha beklari, a'yon-u ashraflari, otasining xizmatida bo'lgan amaldorlarining izzat-ikromini joyiga qo'ygan, ularga turli yurt, tumanlarni in'om etgan, lavozimlar bergan. "Boburnoma"da muallif millati, elatiga qarab odamlarni ajratmaganligini ko'p ta'kidlaydi. Jumladan, Qoshg'ar xoni Sulton Saidxon o'z yaqinlari bilan hech vaqosiz kelganda, ularga Lamg'or va Mandovar tumanini bergani, bir navkarini qo'shib, Andijon viloyatiga Sulton Saidxonni xon qilib tayinlagani, mo'g'ul sultonlariga o'z tug'ishganlaridan ham yaxshiroq qarab, shafqatlar qilganini bayon etadi.

Mirzo Bobur mana shunday sinovli hayotda tahsinga loyiq ishlarni amalga oshira oldi. Bobur o'zining shirin joniga qasd qilib, zaharlagan Ibrohim Lo'diyning onasi – malika Baydani ham va shu singari o'nlab xiyonatkor va bebosh temuriyzodalarni ham kechira olibgina qolmay, ularga katta in'omlar, lashkar-u ot-ulov beradi, o'z ixtiyorlariga qo'yadi, komil musulmon sifatida birortasidan o'ch olmaydi. Chunki Zahiriddin Muhammad Bobur jasur va qat'iyatli bo'lish bilan birga sabr-bardoshli, kechirimli, haqiqatgo'y, halol va imonli inson edi.

Bir so'z bilan aytganda, ulug' bobokalonimizning tarixga bitilgan fazilatlarimiz biz uchun o'rnamak olsa, arzigulik go'zal sifatlardir.

**Madina EHSONOVA,  
Vasila KENJAYEVA,  
Farg'ona viloyati  
O'zbekiston tumani,  
15-umumta'lim maktabi  
o'qituvchilari**

## Javonmard hukmdorning hayotiy timsoli

O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk davlat arbobi, ulug' shoir, adolatlilik shoh, haqgo'y inson edi. Bolalik yillari Andijon viloyatida o'tgan. Saroy muhitida tarbiya topdi, yoshligidan oq ilm-fanga qiziqishi boshqacha edi, ayniqsa, adabiyotga muhabbati baland bo'lgan. Tarixni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi beqiyos edi. Otasi Umar Shayx Mirzo vafotidan so'ng taxtga o'tirgach, davlatni markazlashtirish va kuchli imperiya tuzish maqsadida umri bo'yi harakat qildi. Goh g'alaba qozondi, goho mag'lubiyat alamini boshdan kechirdi. Nihoyat, kindik qoni to'kilgan Vatandan yiroqda afg'on, turk va boshqa qabilalarni bo'ysundirib, buyuk bir davlatga asos soldi. Mamlakatni iqtisodiy, siyosiy, harbiy jihatdan mustahkamladi.

Mard va tanti, saxovat va shijoat sohibi Bobur javonmard hukmdorning hayotiy timsoli edi. Umri jang maydonida o'tishiga qaramay, butun hayoti davomida ilm olishga intildi. Uning shoir, adabiyotshunos olim, tarixchi, mohir sarkarda, musiqashunos, tarjimon sifatidagi serqirra faoliyati va ma'nodor ijodi buning yorqin namunasidir. Bobur farzandlari va yaqinlarining ham ilm olishlari haqida qayg'urardi. Hatto o'g'illari Humoyun va Kamron Mirzolarning shariat ilmlarini yaxshi ergallashlari uchun "Fiqhi Boburiy" asarini yaratgan. "Xatti Boburiy" ham

bu ulug' zotning muhim kashflaridan biri edi.

"Boburnoma" tarixiy-memuar asarida XV asr oxiri XVI asr boshlarida Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda kechgan voqealar o'z aksini topgan. Asarda Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniy, Ubaydulloxon, Shoh Islomiy Safaviy, Ibrohim Lo'diy kabi o'nlab hukmdorlar, Alisher Navoiy, Kamoliddin Binoiy, Xondamir singari qator adabiyot va san'at namoyandalari to'g'risida ma'lumot va xotiralar keltirilgan. "Boburnoma" juda ko'p tillarga, jumladan, ingliz, nemis, fransuz, fors, arab, yapon, rus tillariga



tarjima qilinib, nashr etilgan. Taniqli olim Shafiqa Yorqin bu asar haqida shunday yozadi: "Boburnoma" Boburning o'z ko'zi bilan ko'rib, o'z boshidan kechirgan voqealar bayonidir. U bu voqealarni chinso'zilik va tarafsizlik qoidalariga rioya qilgan holda o'ta badiiy mahorat bilan yozgan".

Shoir she'rlarini tubdan nurlantirib turgan eng muhim xususiyat, bu uning samimiyatidir. Bobur hayotning ikir-chikirlariga tik nigoh bilan qaraydi. Uni bo'rtirmay boricha namoyon qiladi. Boburning orzu-umidlari, nidosi g'azallarida o'z aksini topgandi. Mana u nima deydi:

*Bori elga yaxshilik qilg'ilki,  
mundin yaxshi yo'q,  
Kim, degaylar dahr aro  
qoldi falandin yaxshilig'.*

Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ko'rgazma zallarida Bobur hayoti va merosini o'rganishga bag'ishlangan noyob qo'lyozmalar, kitoblar, tarixiy ashyolar, asarlarining nusxalari va boshqa nodir ashyolar o'rin olgan. Ekspozitsiyaning yuqori qismidagi Boburiylar sulolasi aks etgan panno, Bobur tasavvuridagi Farg'ona xaritasi, 1503–1504-yilda yaratilgan, 29 ta harfdan iborat "Alifbo" pannolari tashrif buyuruvchilarga ajib bir manzarani taqdim etadi. Viloyatimiz mehmonlari va aholisi, ayniqsa yoshlar bu yerga kelib, Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga doir o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishmoqda.

**Xurshidabonu USMANOVA,  
Namangan viloyati tarixi va  
madaniyati davlat muzeyi xodimi**

# O'ZBEK SERIALLARI: XALQONA URMAYOTGAN YURAKLAR

“Ayol – nozik xilqat. Nasr va nazm orqali ayol obrazini eng yuqori mo'jzaviy estetik xilqat sifatida tasvirlash Sharq didaktikasining ajralmas qismi bo'lgan. Dante qalamiga mansub “Ilohiy komediya” asarining “A'rofa” qismi bevosita biz bilgan To'marisning jasoratiga bag'ishlanadi. Fransuz adabiyotida To'maris fransuz milliy qahramoni Janna d'Ark darajasida ulug'lansa, Shekspir To'maris obrazini Yevropa ayollariga namuna qilib ko'rsatgan. Savol tug'iladi: biz bugun o'z ayollarimizni qanchalik qadrlayapmiz?”

...Hozirgi kunda “o'zbek seriallarini ko'rmayman”, degan gapni ko'pchilikdan eshitamiz.



XIX–XX asr rus adabiyoti ustunlari bo'lmish Tolstoy, Chexov, Turgenev, Dostoyevskiy singari yozuvchilar o'z asarlarida ayol ishtirokidagi yengil-yelpi ishqiy mavzulardan yiroqlashgan holda ayol ruhiyatining psixologik xarakterini yuksak badiiy bo'yoqlar bilan tasvirlab, bu obrazni jahon adabiyotida yangi cho'qqiga olib chiqdi.

Sobiq ittifoq davri adabiyotida ayol obraziga o'ziga xos majburiyatlar yuklanib, mafkuraviy xususiyatlar namoyon qilina boshlandi. Biroq bu davrda o'zbek adabiyotida tasvirlangan ayol obraziga qanday vazifa yuklanmasin, u ayollik sha'ni va qadr-qimmatini yo'qotmadi. Ya'ni o'sha davr kino, san'at, teatr va adabiyotida ayol ulug'lansa ulug'landiki, biroq bugungi kun milliy kino, klip va seriallarimizdagi kabi tahqirlanmadi. To'g'ri, o'sha davr kinosi bilan real hayot o'rtasida katta farq bor edi. Ammo nima bo'lgan taqdirda ham bu san'at asarlariga ko'chmagan edi.

## QANI, ORTIMDAN!

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek segmentida “Sabriya” nomli milliy serial atrofida bahs-munozaralar barchaning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratdi. Serialda axloqsiz sahnalarning mavjudligi jamoatchilikning keskin e'tiroziga sabab bo'ldi. Ushbu masala kun tartibiga chiqishi ortidan hatto bir qancha mutasaddi tashkilotlar ham rasmiy bayonot bilan chiqdi. Mulohaza va fikrlarning hammasi shu film atrofida kechdi. Lekin asosiy masala faqat bitta filmda emas. Bugungi kunda taqdim etilayotgan milliy seriallarimizning aksariyat qismi oila davrasida ko'rish uchun yaroqsiz. Ana sizga mavzu!

Kinochilik odamlar ongiga tez singadigan, ularning fikr dunyosiga sezilarli ta'sir o'tkazadigan soha hisoblanadi. Biz bitta xonada o'tirib, ko'p muammolarni muhokama qilishimiz mumkin. Lekin kino orqali million-million odamning fikrini, dunyoqarashini, yurish-turishidan tortib, kiyinish madaniyatigacha tubdan o'zgartirish imkoniyati bor. Albatta, u kino muxlislarga manzur bo'lsa. Xo'sh, yaxshi kino hayotiy voqealardan kelib chiqib, xalq ortidan ergashib yaratilishi kerakmi yoki xalq uning

Ko'pincha xorij seriallarini tanqid qilamiz. Lekin o'zimizda ham shosha-pisha tasvirga olingan shunday yengil-yelpi, saviyasiz kino va seriallarni namoyish qilib, bu jamiyatimizdagi illatlarni ko'rsatuvchi ko'zgu, deyishimiz achinarli hol. Malakasiz rejissyorlar illatlarni bu tarzda bo'rttirib ko'rsatib, nimaga erishmoqchi? Buning oxiri ayanchli oqibatlariga olib kelishini o'ylab ko'rishmaganmi?



ortidan ergashishi kerakmi, degan haqli savol tug'iladi.

Film tomoshabinni o'z ortidan ergashtira olishi kerak. Lekin, avvalo, film ijodkorlari xalqning ortidan ergashgan bo'lishi zarur. Ijodkorning yuragi xalqona urib turgan bo'lsa, uning filmi haqiqiy ma'noda xalqni o'z ortidan ergashtira oladi. Har qanday ulug' falsafa, g'oyaning yuragi o'sha xalqning mentalitetidan kelib chiqqan holda dukillamas ekan, u xalqni o'z ortidan ergashtira olmaydi. Har qanday filmda ham birinchi o'rinda milliylikni markazga qo'yib olmoq darkor.

## ARALASHIB KETGAN IZLAR

O'zimizning milliy mahsulotlar yaratilishi, albatta, quvonarli hol. Axir avval Meksika, keyin (hozir ham) turk seriallaridan bezor bo'lmaganmidik? O'zbek seriallarining ko'payishi telekanallarimiz o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradi. Tomoshabinlarda esa tanlov imkoniyati paydo bo'ladi. Milliy seriallarimiz ko'payishining eng yaxshi tomoni xorij seriallaridagi yot g'oyalarning kirib kelish suratini sekinlatadi. Lekin hayotiy mavzular deb, tomoshabinni qiziqtirish maqsadida jinsiy va oilaviy zo'ravonlik, fahsh va vahshiylik aks etgan sahnalarning ko'payib ketishi oqibatida odamlarda haddan tashqari agressiya hosil bo'lish ehtimoli yuqori. Tomoshabinlar ko'zi shunga moslashib, diydasi qotib, didi sayozlashishi mumkin.

Ko'pincha xorij seriallarini tanqid qilamiz. Lekin o'zimizda ham shosha-pisha tasvirga olingan shunday yengil-yelpi, saviyasiz kino va seriallarni namoyish qilib, bu jamiyatimizdagi illatlarni ko'rsatuvchi ko'zgu, deyishimiz achinarli hol. Malakasiz rejissyorlar illatlarni bu tarzda bo'rttirib ko'rsatib, nimaga erishmoqchi? Buning oxiri ayanchli oqibatlariga olib kelishini o'ylab ko'rishmaganmi?

Shu paytgacha adabiyot yoki kinoda ayolning eriga xiyonati haqidagi yuzlab syujetlarga duch kelganmiz. Biroq har bir ijodkor yaratayotgan asariga umuminsoniy axloqiy me'yorlardan kelib chiqib yondashishga harakat qiladi. Syujetda ayol eriga xiyonat qilishi kerakmi, demak, yetarli bir sabab ham keltiriladi. Bu bilan ijodkor xiyonatni oqlab yo targ'ib qilmaydi. Aksincha unga olib kelgan yo'l va uning oxiri nimalarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Bunday syujetli filmlar ommani o'ziga tez jalb qilib qolmasdan, qing'ir yo'ning oxiri voy bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatib beradi. Biroq bugungi kunda ayrim seriallarda ommani o'ziga jalb qilish bobida yetarli tajriba bor-u, lekin tarbiyaviy jihati yo'q. Bir so'z bilan aytganda, ayrim kimsalar bu

turdagi intrigadan o'z bizneslarining gullab-yashnashi yo'lida faol foydalanmoqda. Boshqacha aytganda esa yana o'sha mashhur gap: “Endi buyog'iga ot izi iziga aralashib ketdi”.

Shuning uchun ham hozirgi kunda “o'zbek seriallarini ko'rmayman”, degan gapni ko'pchilikdan eshitamiz. O'rtoq rejissyorlar, xabaringiz bormi, o'zini hurmat qiladigan, o'z ustida ishlaydigan, vaqtini qadrlaydigan auditoriya, ya'ni ziyoli qatlam o'zbek seriallarini ko'rmayapti hisob.

## SUIISTE'MOL QILMASLIK KERAK

Har qanday kino, serial yoki klip jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlar, qadriyatlar va axloqiy fazilatlarini suiiste'mol qilmasligi shart. Bu esa ko'proq televideniyaedagi mas'ul mutasaddilarga mas'uliyat yuklashi kerak. Agar ular shu kabi yengil-yelpi kino va seriallarni efirga uzatishni muntazam ravishda rad etsa, nima bo'ladi? Albatta, ijodiy jamoa o'z ustida ishlay boshlaydi. Natijada esa xalqchil, oilaviy tomosha qilsa bo'ladigan filmlar yaratiladi.

Raqobat maydonida auditoriyani xorijiy seriallarga boy berib qo'ymaslik kerak. Bu bilan xorij filmlarini butunlay rad etish fikridan yiroqmiz, albatta. O'rnak bo'ladigan, ma'naviy-ma'rifiy, yuki tosh bosadigan, saviyasi va hayotiy xorij seriallari, badiiy filmlari ham bisyor. Faqat ularni did va farosat bilan tanlay olish, xalqimizga sifatli tarzda uzatish masalasi doim ham bir xil kechmayapti. Shuning ortidan biz chet el film va seriallarini ommaviy tarzda qoralash tarafdori bo'lib qolyapmiz. Har qanday vaziyatda ham xolis bo'lish esa xalqimizga xos xususiyat.

Xo'sh, o'zbek kino ijodkorlari auditoriyaga sifatli mahsulotlar taqdim etishi uchun nima qilishi kerak? Buning uchun, avvalo, saviyasiz, yengil-yelpi, real hayotdan yiroq, faqat maishiy masalalar atrofida o'ralashib qolgan milliy seriallarni suratga olishni bas qilib, jiddiyroq mavzulardagi kinofilmlarga qo'l urishimiz lozim. Agar biz diniy, milliy va axloqiy qadriyatlarimiz, shuningdek, tarixiy qahramonlarimiz hayoti haqida o'tkir syujetli seriallar va filmlar yaratmas ekanmiz, ertaga ham kimlardir tomonidan suratga olingan va otning kallasiday mablag' evaziga xarid qilingan xorijiy seriallarning jamiyat hayotiga ta'sir o'tkazayotgan salbiy jihatlari haqida gapirib o'tirishdan nariga o'tolmay qolamiz.

Sherzod EGAMBERDIYEV,  
“Vatanparvar”



Харбий спортчиларимизнинг жаҳон ареналарида юқори поғоналарни забт этаётганини кўрганда кўнгилларда ифтихор туйғулари жўш уради. Аммо кунни тунга улаб, машаққатлар ортидан заҳматли ғалабаларни қўлга киритаётган муравбийлар ҳақида доим ҳам ўйлайвермаймиз ва кўпинча уларни танитаймиз ҳам. Шу воис харбий спорт, муравбийлик сирлари, эришилган ва эришилмаган натижалар, рекордлар ҳақида Чирчиқ олий танк қўмондонлик-муҳандислик билим юрти Жисмоний тайёргарлик ва спорт кафедраси катта ўқитувчиси подполковник Азат Абдурахманов билан суҳбатлашдик.

**– Азат ака, муравбийлик фаолиятини қачон бошлагансиз?**

– Офицерлик фаолиятимда жисмоний тайёргарлик ва спорт йўналишига 2001 йили кириб келган бўлсам, ўшандан буён муравбийман. Мана, 20 йилдан бери мусобақаларга шогирдлар тайёрлайман, ўзим ҳам иштирок этиб келаман.

**– Харбий спортчининг оддий спортчидан фарқи нимада?**

– Харбийлик, аввало, тартиб-интизом дегани. Шу воис харбий спортчининг бошқа спортчилардан фарқини қисқа тайёргарлик билан юқори натижага эришишда деб ўйлайман.

**– Муравбийлик масъулияти нималарда кўринади?**

– Муравбийлик масъулияти жуда оғир, ҳамма ҳам бу юкни кўтара олмайдди. Меҳнатнинг машаққатлари, шогирдлар характерининг хилма-хиллиги, ютуқлар, машғулотлардаги юклар, уйқусиз тунлар. Муравбий спортчидаги қобилиятни эртaroқ аниқлай олиши керак. Қисқа қилиб айтганда, муравбий шогирдларга ҳам жисмонан, ҳам маънан ўрнатки бўлиши керак.

**– «Муравбий ҳам жисмонан, ҳам маънан ўрнатки бўлиши керак», дедингиз. Шогирдларга намуна ва далда бўлиш учун сиз нимадан ёки қаердан мотивация оласиз?**

– Вақт – олий ҳакам. Айниқса, спортда сониянинг юздан бир улуши ҳам мусобақадаги ўрнини ҳал қилиб қўйиши мумкин. Шундай экан, ҳар бир инсон кун тартибини белгилаб, унга қатъий амал қилиши лозим. Жисмоний тарбия билан узоқ йиллар мунтазам шуғулланиш одамдан жуда катта ирода талаб этади. Мен кун тартибимни шу даражада қатъий белгилаб олганманки, ҳаммасига ўз вақтида улгуришим, қадрига етишим керак. Белгиланган кун тартибимнинг «рацион»да китоб ўқиш учун алоҳида вақт ажратилган. Мотивацияни энг яқин дўстим – китобдан оламан. Шогирдларимга ҳам кўп айтаман, китоб ўқимасдан туриб, ҳеч қандай натижага эришиб бўлмайди. Жисмоний кучни тўғри тақсимлаш учун ҳам билим керак. Рақибнинг ҳолатини ҳис қилиш, унинг кўзидан, юзидан, хатти-ҳаракатидан кўп нарсани ўқиш мумкин. Аммо бунинг учун спортчида етарлича билим ва тажриба бўлиши керак. Бунинг тағамирида муталаа этади.

**– Бугунги кунга қанча шогирдлар етишиб чиқди?**

– Айни пайтда шогирдларим орасида 20 дан ортиқ спорт устаси, 100 дан ортиқ спорт усталлигига номзод бор. Шогирдларим бу натижаларни тош кўтариш, харбий учкураш, бешкураш, кўпкураш, армия биатлони, парашют кўпкураши бўйича қўлга киритган. Жумладан, катта лейтенант Жаҳонгир Пўлатов – кўпкураш бўйича халқаро спорт устаси, лейтенант Абдулазиз Қуд-

# СИНАЛГАН УСУЛ, НАТИЖА, УСТОЗ



**Суҳбатдош ҳақида маълумотлар:**  
1977 йил 25 декабрда Тошкент вилояти Юқори Чирчиқ туманида таваллуд топган.  
1999 йилда Жиззах олий харбий авиация билим юртини битирган (ҳозирги Ўзбекистон олий харбий авиация билим юрти).  
Юнон-рум кураши бўйича спорт устаси, тош кўтариш, кўпкураш, парашют билан сакраш бўйича кўп карра Ўзбекистон чемпиони.  
«Харбий спортчи», «Жисмоний тарбия ва спорт аълоҳиси» кўкрак нишонлари соҳиби.

ратов – тош кўтариш бўйича Мудофаа вазирлиги миқёсида 5 карра чемпион. Эътиборлиси, Абдулазиз ҳар йили ўзи ўрнатган рекордни ўзи янгилаяпти. Унинг охириги натижаси 10 дақиқада 444 балл.

**– Терма жамоани шакллантиришда нималарга эътибор берасиз?**

– Сараланганлар орасидан ички чемпионат ўтказилади ва янада саралаб олинади. Доим захира ушлаб тураман, иссиқ жон, ҳар лаҳза иситмаси бўлиши, бирор қутилмаган ҳолат юз бериши мумкин. Охириги халқаро турнир – Покистонда харбийлар ўртасида бўлиб ўтган бешкураш бўйича III халқаро мусобақада 12 та давлат иштирок этди. Бу мусобақада илк иштирокдаёқ Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги жамоаси мезбонлардан кейинги 2-ўринни қўлга киритди. Уша мусобақага ҳам 24 нафар сараланганлар орасидан 11 нафар энг сарасини танладик ва натижа қутилганидек бўлди. Аслида бешкураш баҳсининг мураккаблиги шундан иборатки, тўрт босқичдан муваффақиятли ўтган иштирокчи охиридаги отиш шартини бажара олмаса, барча натижалар йўққа чиқади. Ҳаммага маълумки, аксарият ҳолларда мезбон жамоани қўллаб-қувватловчи мухлислари кўп бўлади. Бу эса рақиб жамоа вакиллариға ноқулайлик туғдиради. Отиш машинининг мураккаблиги эса диққатни жамлай олишда. Ана шундай қалтис вазиятларда жамоанинг диққатни бўлмасдан, топшириқни аниқ бажаришида муравбийнинг таъсири катта.

**– Спортчи ўрнатган шахсий рекордида муравбийнинг ҳиссаси қандай?**

– Тўғри йўналиш, метин ирода ва тинимсиз меҳнат орқали ҳар қандай

натижани янгилаш мумкин. Шогирдларимнинг турникда тортилиш бўйича энг яхши кўрсаткичи 50 та эди. Ҳозирда улар билан тинимсиз машғулотлар ўтказиб, 80 тага етказдик. Бу рақам тез кунларда яна ўзгаради. Қолаверса, майдондаги беллашув шуқуҳи ва муравбийнинг тўғри мотивацияси ҳам спортчиға шижоат бериши мумкин. Покистонда бўлиб ўтган бешкураш мусобақасининг тўсиқлардан ўтиш шартида Достон Маҳмудов 53 сония натижа билан рекорд ўрнатди. Аслида унинг машғулотдаги энг яхши натижаси 1 дақиқа 7 сония эди.

Шу ўринда яна бир нарсани айтиб ўтишни истар эдим, шогирдларимға ўргатмоқчи бўлган ҳар қандай усул ва методикани аввал ўзимда синаб кўраман ва ундан кейин татбиқ этаман.

**– Спортчининг машғулотда яхши натижа кўрсатиши ва мусобақада «оқсаши»да ким кўпроқ айбдор: муравбийми, спортчими?**

– Бу ҳолатда икки тараф ҳам айбдор бўлиши мумкин. Чунки халқаро мусобақа жуда катта масъулият ва оғир меҳнат, унча-мунча ирода тобланадиган майдондир. Ортингда Ватанинг турганини ҳис қилсанг, бу масъулият икки карра ортиб, ҳаяжонланишға олиб келади ва хато қилишға мажбур қилади. Яна бир қизиқ ҳолатни шу ерда айтиб ўтмасам бўлмайди. Мусобақаларға тайёргарлик жараёнида ҳар



бир натижани аъло даражада бажарган байроқдор спортчи мусобақада яхши натижа кўрсатолмай қолиши мумкин. Аксинча, машғулотда ўзини кўрсата олмаган ва кўпчилик ундан яхши натижа кутмаган спортчи мусобақа рекордини янгилashi мумкин. Бундай пайтларда шогирдларнинг ички ва ташқи имкониятларини тўғри баҳолай олиш яна биз, муравбийлар зиммасига тушади. Бу ерда яна соҳаға оид турли китобларнинг муталааси ва йиллар давомида орттирилган тажриба иш беради. Муравбий ўта кучли психолог бўлиши керак.

**– Муравбий шогирдни қандай танлаши лозим?**

– Қайси соҳа бўлишидан қатъи назар, узоқ йиллик фаолият ўша соҳанинг мутахассисига айлантириб қўяди, агар ўша касбни севсангиз, албатта. Тажриба ошиб борган сари ўзингизға бўлган ишончингиз ҳам ортиб бораверади. Қачонлардир сиз босиб ўтган йўлнинг бошида турган бир инсоннинг кўзларидан у бунга қодирми ёки йўқлигини бемалол ўқиб олишингиз мумкин. Мен ҳам ўз касбимни севган инсон сифатида, спортға муҳаббати борларни саралаб оламан. Бу ҳолатни аввало уларнинг кўзларидан ўқийман. Кўзлар ҳеч қачон алдамайди. Инсоннинг руҳий қуввати кўзларда намоён бўлади. Нигоҳлар ёлғонни хушламайди, барибир «сотиб» қўяди.

**– Натижа учун манзил ва макон қанчалик аҳамиятли?**

– Жисмоний ҳаракатлар билан боғлиқ ҳар қандай спорт турида бўлиб ўтадиган мусобақаларнинг ўтказиладиган жойи жуда катта аҳамиятға эга. Иқлими ва жойлашган жойи, денгиз сатҳидан қанча баландликда, ҳаво босими миқдори, қуруқ ёки намлиги каби маълумотларни билиб олганимиздан кейин шу иқлимға мосланган кичик машғулотларни қўшимча тарзда ўтказаман. Аслида катта мусобақалар бўлиб ўтадиган мамлакатға камида бир ой олдин борилади ва иқлимға мослашилади. Аммо харбий спортчиларда бундай имконият камдан-кам бўлади. Шунинг учун ҳам улардан ҳар қандай об-ҳаво шароитиға мослашувчанлик, матонат ва фидойилик талаб қилинади.

**– Харбий спорт муравбийи бўлиш билан бир қаторда доцент илмий унвонига ҳам эга бўлдингиз...**

– Доцент илмий унвонининг талаблари анча қийин экан. Хорижий журналларда илмий мақола ва методикаларим чоп этилди. Жисмоний тайёргарликка оид турли қўлланма ва тўпламлар нашр эттирдик. Йўналишимиз спорт бўлгани воис, тайёрлаган шогирдларимнинг натижалари кўпроқ асқатди. Асосан охириги 3 йилда эришилган натижалар билан ҳисоблашилганини инобатға олсак, 20 дан ортиқ спорт устаси етишиб чиққанининг ўзиёқ менға жуда катта имкониятлар эшигини очди. Қисқаси, 20 йилдан ортиқ муравбийлик фаолиятим давомида эришган натижа ва тажрибаларимнинг самараси ўларoқ, Олий аттестация комиссиясининг қарорига мувофиқ, доцент илмий унвонига лойиқ кўрилдим.

**– Келажакдаги режаларингиз?**

– Шогирдларнинг спортға бўлган қизиқиши ва муҳаббатини оширишдан тўхтамайман. Олдинда режалаштирилган мусобақаларимиз кутиб турибди. Уларда шогирдларим билан иштирок этиб, юқори натижаларни забт этмоқчимиз.

Тирик жон борки, доимий ҳаракатда бўлади. Бу ҳаракатлар мушаклар мустаҳкамлигини таъминлайди. Тана тез қаримаслиги учун ҳам бундай ҳаракатларни жисмоний машғулотлар билан бойитиб бориш мақсадға мувофиқ. Китоб маънавий озуқа берса, жисмоний машғулотлар тан сиҳатлигига хизмат қилади. Тилагим, ҳар бир инсон спорт билан мунтазам шуғулланишни кун тартибининг бир бўлагиға айлантириб олмоғи керак.

«Vatanparvar» муҳбири  
Шерзод ШАРИПОВ  
суҳбатлашди.



1

Rahmatli akam – havo desanti qo'shinlari mayori Norbek Qodirov 1946-yilda Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida tug'ilgan. Ota-onamning qarshiligiga qaramasdan ofitser bo'lish maqsadida 14 yoshida uydin chiqib ketgan. O'rta maktabni tugatgach, Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga kirgan. Shu-shu, hayotining yarmidan ko'pini O'zbekistondan tashqarida, ya'ni Rossiya, Boltiqbo'yi mamlakatlari, Kavkazda o'tkazgan. Yelkalarida yaltiroq pogoni va ikki-uchta jomadoni bilan qayerga jo'natsa, "Xo'p bo'ladi!" deya ketavergan.

Akam o'ttiz yoshga yetganda men endigina 10 yoshni qoralagan edim. Oq-qorani, yaxshiyomonni ajrata olardim. Xuddi kechagidek esimda, akam uyimizga yiliga bir marta boryo'g'i bir haftaga kelardi. Ta'vil vaqti tugagach, onam rahmatli naqd o'n bir oy davomida sog'inaverib, kutaverib, yig'layverib kasal bo'lib yotardi. Sal oyoqqa turgach, otamning hay-haylashiga qaramasdan akamning ortidan yo'lga tushardi. Uyga qaytib kelardi-yu, oradan uch-to'rt oy o'tgach, yana to'shakda yotib qolardi. Otamdan dakki eshitaverib, yum-yum yig'lar edi.

Sovet zamonida shunaqa bo'lganda. Ota-ona boshqa tomonda harbiyligni tanlagan farzandlar kun tegmas, yulduzi ko'rinmaydigan yurtlarda yelkalari yag'ir bo'lib yuraverishgan. Xizmatiga yigirma besh yil to'lmagunicha ayriliq, sog'inish azoblariga chidashga majbur bo'lganlar. Buning ustiga millatchilik, tahqirlash, xo'rlash, ishdan bo'shatish, qamash, jazolash birgina akamning emas, ko'pchilik yurtdoshlarimizning tinka-madorini quritgan o'sha paytlarda. Iligini so'rib olgan. Birgina afg'on urushida o'n to'rt mingdan ortiq o'zbek ofitser va askarlarining qurbon bo'lganligi buning yaqqol isbotidir. Sho'ro armiyasi shunday taloto'pli, ich-ichidan illatli, minnatli kuch sifatida ko'pchilikning esida qolgan. Ko'rinishidan changi chiqib, bo'g'riqib ketgan otxonadan, molxonadan farq qilmagan deyarli.

Kunlarning birida otam ta'vilga kelgan akamni qattiq siquvga oldi:

– Bo'ldi, ketmaysan! Armiyangning menga keragi yo'q! Boshliqlarningning oldiga o'zim borib, seni ishdan bo'shatib kelaman. Onangning ahvoliga qara, adoyi tamom qilding-ku, bolam, bizlarni ham o'yla-da, – dedi mehr va alam aralash titrab. Shunda otamning ko'zlariga g'iltillab yosh kelganligini ko'rib qoldim. Ko'nglimda achinish hissi paydo bo'ldi. Rosti, akamni bola ko'nglim bilan yomon ko'rib ketdim. Bunisi yetmagandek, kasalmand onam akamni quchoqlab, o'kirib yig'ladi:

– Seni endi qo'yib yubormayman, bolajonim. Hovlidan bir qadam chiqsang, o'laman, Norbek... – dedi.

Akam miq etmasdan bir joyda qotib qoldi. Tishlarini g'ijirlatadi, barmoqlarini qayirib qisirlatadi.

– Shu safar qo'yib yuboringlar. Borsam, balki, bir-ikki yilda O'zbekistonga qaytarar, onajon... – deya oldi zo'rg'a ko'zlar namlanib.

Uning o'yanchan holda, o'zi ham ishonmasdan aytayotgan gap-so'zlarini ohangidan shuni anglash mumkin ediki, yurtma-yurt, shaharshahar ko'chib yuraverish akamning ham

# MAYOR QODIROVNING ARMONLARI

joniga tekkan edi. Onam yig'lagan paytlarda akam: "O'zbekning ham yelkasiga oftob tegib qolar, kelarman yaqinroqqa..." deya armon qilganiga bir necha bor guvoh bo'lganman. Onabola o'rtaqidagi yalinib-yolvorishlardan anglaganim shuki, akam ham sof o'zbek armiyasida, o'zbeklar orasida xizmat qilishni juda-juda istar edi shu paytlarda. Ammo buning imkoni bo'lmagan sira.

2

Shu kuni akam ota-onamni bir amallab ko'ndirdi-da, yana xizmatiga jo'nadi. Oradan qancha o'tdi, bilmadim, hovlimizga pochta kelib, onamning qo'lga xat berib ketdi. Xat rus tilida yozilgan bo'lib, uning ma'nosini chaqishga hech kimning tishi o'tmadi. Men onamning qistovi bilan otamni do'kondan chaqirib keldim. Otam xatga bir bor ko'z yugurtirdi-da, onamga qarab:

– O'g'lingni qamab qo'yishibduku! – dedi yig'lamoqdan beri bo'lib. Onam nafasi qisgandek xatni otamning qo'lidan yulib oldi-da, "shilq" etib yiqildi. Hovlimizda vahima ko'tarildi. Sayfiddin degan do'xtir kelib, onamga ikki-uchta ukol qildi, dori ichirdi. So'ng "Onanglarga xalal bermanglar, uxlasin", deya hammamizni uydin chiqarib yubordi.

Otam hovlida turib, xuddi eshitadigandek boshqa yurtlarda yurgan akamning ismini aytib, o'zicha ming pushaymon bilan nolish qildi:

– Xullas, onangni yeding-a, ahmoq bolam, – deya yelkalari silkinib-silkinib yig'ladi. Ishonmagandek xatni qayta-qayta o'qidi. Bir haftadan so'ng otam, onam, men tanimagan yana bir kishi akamni ko'rish uchun Leningradga yo'l oldik.

Akamning qamalishi boshqa millat vakillari tomonidan atay uyushtirilgan ma'lum bo'ldi. U harbiy qismda navbatchilik qilayotgan paytda kimdir bir dona pistoletni o'g'irlab ketgan. Akam qamoqqa olingandan so'ng, o'g'irlangan pistolet ofitserlar oshxonasidagi qozonlardan biriga tashlab ketilgan. Shu yo'l bilan akamni navbatdagi harbiy unvon olishdan mahrum qilgan. Mana sizga millatchilik! Mana sizga sobiq sovet armiyasining ko'z ko'rib, quloq eshitmagan surbettigil!

Bir oydan so'ng akam oqlanib chiqdi. Unvoni bir pog'ona pasaytirilib, Pskov shahridagi harbiy qismlardan biriga xizmatga jo'natib yuborildi. Qurol o'g'irlari topilgan bo'lsa-da, jazodan qutulib qolishdi, chamamda.

3

Akam o'ttiz sakkiz yoshga yetganda, men o'n sakkizga kirdim. Armiyaga ketish haqida o'ylay boshladim. Erta ko'klamda harbiy xizmatga chaqiruv qog'ozini berib ketishibdi. Keyinchalik bilganim shu bo'ldiki, onam rahmatli chaqiruv qog'ozini menga ko'rsatmasdan akamning qo'lga yetkazgan va qanday bo'lmasin meni harbiy xizmatdan olib qolishini tayinlagan ekan. Avvaliga

tuman harbiy komissariatida dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tdik. Uch kundan keyin barcha chaqiriluvchilarni katta avtobusda viloyat harbiy komissariatiga olib kelishdi. Ko'rik navbati menga kelganda to'satdan qarshimda akam paydo bo'ldi. Salom-alikdan so'ng, ko'zdan panaroq joyga tortib:

– Ukajon, mendan xafa bo'lma. Onam menga seni armiyadan olib qolishni qattiq tayinlagan. Tibbiy ko'rikka kirmaysan. Shu yerdan uyga qaytasan, – dedi.

Bir siltanib, qo'lidan chiqib ketdim. Barcha chaqiriluvchilar tibbiy ko'rikdan o'tkazilayotgan xonaga yetishim barobarida kimdir ichkaridan eshikni qarsillatib yopdi va kalitni burab qo'ydi. Ortimda turgan akamga o'girilib, "Baribir ketaman, meni to'xtata olmaysiz", dedim. Akam onamga qattiq so'z berganligini yana bir bor eslatdi. O'zicha meni insofqa chaqirdi. O'qishga kirishda yordam berishga va'da berdi. "Onamning oldida sen uchun javobgarman, jinnilik qilma, gapga kir!" dedi. Akamning "Harbiy xizmatga yaroqsiz", deya peshonamga tamg'a bosadigan imkoniyati borligidan juda xavotirlandim.

Tashqariga otilib chiqdim. Birinchi bor akamning oldida kissamdan sigareta chiqarib, cheka boshladim. Akam bunga atay e'tibor qilmadi. Shu bilan hovuridan tushar-da, deb o'yladi menimcha. Ancha vaqt davom etgan jimlikdan so'ng: "Ukajon, armiyaga judayam borging kelyaptimi?" deb so'radi. "Ha, ketishim kerak, do'stlarimdan ayirmang!" deb javob berdim. Akam: "Sen qo'shilgan guruh to'g'ri Turkmanistonga, keyin Germaniya yoki Afg'onistonga yo'l oladi, afg'onida urush. Chidaysanmi, hali ham kech emas, fikringdan qayt!" dedi. Men ko'nmadim. Ketaman, deya oyoq tirab turib oldim.

Akam bu safar yalinib ohangida:

– Ukajon, Afg'onistonga o'tib ketsang, mayib-majruh bo'lib qaytasan-ku! Keyin onamga nima deb javob beraman?" dedi.

– Peshonamdan ko'raman, aka, faqat uyga qaytarmang, – deb yalindim.

Bunga javoban akam, bordi-yu, Afg'onistonga tushadigan bo'lsam, uyga urush maydonida ekanligimni bildirib xat yozmaslikka va'damni oldi va omad tilab mashinasiga o'tirdi. "To'xtang, aka, – dedim mashina eshigi tutqichidan ushlab. – Men hozir armiyaga ketib qolsam, onamga nima deb javob berasiz?" deya so'radim ko'nglim xijil bo'lib. Akam zaharxandalik bilan kulib, qolgani mening ishim, uka, degandek mashinani g'izillatib haydab ketdi. Shunda birinchi bor rahmatli akamning mardligini his qildim. Allohga shukr, xizmatni Afg'onistonda emas, Germaniya Demokratik Respublikasida o'tab, sog'-omon uyga qaytdim.

4

Xarbiy xizmatdan qaytganimdan so'ng akam bilan yanada inoqlashib ketdik. Ko'rishganimizda uxlamasdan suhbatlashadigan, dardlashadigan bo'lib qoldik. Bu paytga kelib akam xizmatini butunlay O'zbekistonga ko'chirib kelgan, Samarqand viloyati Jomboy tumani mudofaa ishlari bo'limiga rahbar etib tayinlangan, eng muhimi, O'zbekiston mustaqillik maqomini qo'lga kiritgan edi. Kunlarning birida akamga: "Mana, yurtimizga qaytib keldingiz, endi siz ham polkovnik olib qolarsizov", deya hazillashdim. "Polkovnik deysanmi? – deya yovsirab, yotsirab qaradi menga. – Agarda

sobiq sho'ro armiyasida adolat bo'lganida edi, men allaqachon general bo'lardim", deya armon qildi. Keyin ko'nglidagi "xotira daftari"ni ochdi. Eshit dedi menga:

– 18 yoshimda Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga kirdim.

21 yoshimda millatchi degan, tamg'a bilan bilim yurtidan haydaldim.

23 yoshimda o'qishimni qayta tikladim.

25 yoshimda harbiy bilim yurtini tamomlab, Farg'ona shahridagi havo desanti qo'shinlar polkiga xizmatga jo'natildim.

28 yoshimdan boshlab sobiq SSSRning Leningrad, Pskov, Kislovodskiy, Ryazan, Gomel, Tbilisi, Leninokan shaharlarida halol xizmat qildim. Qiyyin bo'lsa-da, chidadim. Bu orada tuhmat bilan bir oyga qamaldim. Sudda oqlandim. Yana xizmatga qaytdim. G'alamis kimsalar ikki marta samolyotda turib parashyutimning iplarini kesib tashlashdi. Yaralandim. Yana safga qaytdim. Oilam buzildi. Uni tiklaguncha yana azob chekdim. Orada bir o'g'limdan ayrildim. Qahr-g'azab, kamsitish, unvon va mukofotlardan mahrum qilishlar sog'lig'imdan ayirdi. Mana senga qarshingda turgan, qalbi jarohatlarga to'lib-toshgan bir mayorning ittifoq armiyasida "qo'lga kiritganlari"! Biroz oldin "Aka, mustaqil armiyamizda ham biroz xizmat qiling, yurt taraqqiyotiga hissa qo'shing!" deding-a, ukam. Men haqiqatan ham aytganingdek ishlashni, ona yurt mudofaasiga hissa qo'shishni istayman. Ammo sog'lig'im ko'tarmasa, nima qilay, ayt? Aslida o'z Vatani uchun xizmat qila olgan odamgina baxtli bo'larkan. Sen Vatanni, Vatanning seni himoya qila olsa, qanday yaxshi...

Akam – havo-desanti qo'shinlari mayori Norbek Qodirov 1996-yilda nafaqaga chiqdi. Sog'lig'ini tiklash uchun ko'-o'p davolandi, yugur-yugur qildi. Oradan 9 yil o'tib, Allohga omonatini topshirdi. Joylaringiz jannatda bo'lsin, akajon...

## JO'NATILMAGAN MAKTUB

Akam-ov! Hayot yo'lingiz sershovqin, kasbingiz sharaflil, umringiz esa juda qisqa bo'ldi. Afsus, millatimizning bugungi armiyasini, uning yutuqlarini ko'rolmadigiz. Siz tepada uchgan samolyotlar, siz yelkangizdan ildirib sakragan parashyutlar hozir butunlay boshqacha. Juda zo'r, juda zamonaviy. Qurol-aslahalarni, harbiylarimizning jangovar shayligini, tartib-intizomni aytmayisizmi! Dunyoning havasi keladi. Harbiy liboslar, orden va medallar, hurmat-e'tibor, e'zoz, talab va tashabbus harbiylarimizning qaddini osmon qadar yuksaltirib yubordi.

Bugungi armiyamizda hammaga bir xil imkoniyat, sharoit yaratilgan. Mahalliychilik, millatchilik, kamsitishlar, haqoratlar ildizi bilan qo'porib tashlandi. Siz sho'ro armiyasida xizmat qilish jarayonida kvartirama-kvartira ko'chib yurgan bo'lsangiz, mustaqil armiyamizning har bir xizmatchisiga hozir shinam, ko'rkam, zamonaviy uylar qurib berilmoqda. Ular eng so'nggi rusumdagi mashinalarni maza qilib minib yurishibdi. Harbiylarimizning salobatini ko'rib, ko'zlingiz quvonadi, qalbingiz beixtiyor faxr-iftixorga to'ladi. Ular ona Vatanimizning tom ma'nodagi ishonchli qalqonlaridir.

Afsus, sizga ularning qatorida ona Vatanga xizmat qilish nasib etmadi. Bu hammamiz uchun armonligicha qoldi.

Aka, mayorlarni ko'rsam, mayor bo'lgan akam, generallarni ko'rsam, general bo'lmagan akam, deya sizni eslayman. Sabr-bardoshingizga qoyil qolaman. Farzandlarimiz katta bo'ldi: kimdir qiz chiqarmoqda, kimdir kelin tushirish taraddudida. Yiliga 5-6 ta to'y o'tkazamiz. Shunday kezlarda o'rningiz juda bilinadi...

Normurod MUSOMOV,  
jurnalist

# AQLNING QAYROG'I, KO'NGILLARNING CHIROG'I

**“Kitob hayotning eng olis va qorong'u yo'llariga nur baxsh etgan afsonaviy chiroqdir”, deydi taniqli yozuvchi Andrey Upit. Mana shu chiroq ko'ngillarga ziyo ulashib, ezgulik urug'ini sepadi. Tarixdan faxrlanish, ajdodlar hayotini ibrat deb bilib, ularga munosib farzand bo'lib yashash saodatini tuhfa qiladi.**

Darhaqiqat, kitob – ko'ngil maskani. Yolg'iz qolsangiz, albatta, kitob ila do'stlashasiz, suhbatlashasiz. Zero, mutolaa insonni doim yaxshiliklar sari yetaklashi haqiqat. Shu sababdan ham bugun yurtimizda inson ma'naviyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida kitobxonlik targ'iboti davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Aholining keng qatlami orasida kitobxonlikni targ'ib qilish an'anaviy tus oldi. Bu borada turli tanlovlar, musobaqalar o'tkazilmoqda, bu o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Shu jumladan, Mudofaa vazirligi tizimida ham, ayniqsa, harbiylar va ularning oila a'zolarida kitobga muhabbat tuyg'usini mustahkamlash maqsadida keng shart-sharoitlar yaratib berilayotgani tahsinga sazovor. Shu o'rinda fikrimizni Shimoli-g'arbiy harbiy okrug Nukus garnizonida joylashgan harbiy qismning kutubxonasi misolida davom ettirishni lozim topdik.

## KENG OMMAGA MO'LJALLANGAN

Bu ma'naviyat maskani doimo kitobxonlar bilan gavjum. Stolga muk tushgan kitob mutolaasiga berilgan askar, gazeta-jurnal varaqlayotgan qariya, qo'lida bir dasta kitob tutgan o'quvchilar, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun kitob olayotgan harbiy oila bekalari... Bu manzarani chetdan kuzatish maroqli. Eng muhimi, 2018-yili qayta ta'mirlanib, zamonaviy va namunaviy qiyofada faoliyatini boshlagan mazkur kutubxona endilikda nafaqat harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga balki harbiy shaharchada istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarga, shu bilan birga mahalladagi 44-umumta'lim maktabi o'quvchilariga ham xizmat ko'rsatmoqda. Shu orqali aholi orasida kitobxonlik ma'naviyati, madaniyati targ'ibotiga bemisil hissa qo'shmoqda.

Kutubxonada o'quvchilar uchun barcha qulaylik va imkoniyatlar yaratilgan. Zero, taraqqiyot shiddat bilan odimlar ekan, kutubxonalarda ham ishni yangicha tashkil qilish, ilg'or axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Mana shu hayot haqiqatiga tayanib faoliyat yuritayotgan mazkur kutubxonada xizmat ko'rsatish sifati a'lo darajada. Siz bu yerda o'zingizni qiziqtirgan kitoblarni, albatta, topa olasiz. Kutubxonaning ayni vaqtda o'n bir mingga yaqin kitob fondi bor. Shulardan yetti mingtasi o'zbek, qoraqalpoq va jahon adabiyotining eng nodir namunalari sanalsa, besh yuzga yaqini bolalar adabiyoti, ikki mingdan ziyodrog'i ilmiy, tarixiy, huquqiy, iqtisodiy yo'nalishdagi turli adabiyot va qo'llanmalardan iborat. Elektron kutubxona esa kitobxonlarga o'zlarini qiziqtirgan kerakli adabiyot va ma'lumotlardan keng foydalanish imkonini beradi. Ayni vaqtda kutubxonada elektron

kutubxona uchun mo'ljallangan 12 ta kompyuter ishlab turibdi. O'quvchilar 8 000 dan ortiq turli tillardagi adabiyotni elektron tarzda o'qish imkoniga ega.

## MEHNATNING E'TIROFI

Mazkur kutubxona 2021-yil sarhisobiga ko'ra, Mudofaa vazirligi tizimida bo'lib o'tgan “Eng yaxshi



kutubxona” ko'rik-tanlovida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. “Eng yaxshi kutubxonachi” ko'rik-tanlovida kutubxona mudirasi Eleonora Yernazarova g'oliblar qatoridan joy oldi. Bu e'tirof aslida kutubxona faoliyatiga berilgan yuksak baho ekanligini ta'kidlash o'rinni.

## “JONLI KITOB” LOYIHASI

– Internet rivojlangani bilan kitob va gazeta mutolaasiga bo'lgan talab susaygani yo'q. Buni kitobxonlarimiz misolida aytaymiz. Foydalanuvchilarimiz soni kun sayin ortyapti. Demak, aholi o'rtasida kitobxonlik madaniyati

shakllanyapti, – deydi kutubxona mudirasi Eleonora Yernazarova. – Harbiy okrugimiz Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan bo'lib, bu yerda turli viloyatlardan kelgan harbiylar xizmat qilishadi. Ular uchun qoraqalpoq xalqi, madaniyati, san'ati, shu bilan bir qatorda adabiyoti doimo qiziqarli bo'lib kelgan. Biz ana shunday qiziquvchan kitobxonlarimiz uchun “Qoraqalpoq adabiyoti burchagi” tashkil

turamiz. Shu orqali harbiylarimizni qoraqalpoq adabiyoti, urf-odatlarini, madaniyati bilan yaqindan tanishtiramiz.

Doimo kitobsevarlarimiz bilan turli tadbirlar o'tkazishga harakat qilaman. Yaqinda Internet sahifalari orqali Daniya davlatida “Jonli kutubxona” borligi haqida o'qib qoldim. Bunda o'quvchilar biror kitob bilan emas, balki mashhur insonlar bilan tanishtirilgan ekan. 30 daqiqa davomida kitobxonlar qahramonning kechinmalarini, hayot yo'li, mashaqqatlari haqida eshitarkan. Bu menga juda qiziqarli tuyuldi. Mana shu loyihani biz ham amalga oshirdik: ilk marotaba “Jonli kitob” loyihasiga mehmon sifatida mohir qilichboz usta Zaynab Dayirbekovani taklif etdik. Yosh sportchi bilan o'tgan uchrashuv harbiylarimiz va yoshlarda juda katta taassurot qoldirdi. Bu tadbir hammaga manzur bo'ldi va kelgusida ham “Jonli kitob” loyihasini tez-tez o'tkazib turish niyatidamiz.

## HAMKORLIK

Bugungi globallashuv davrini Internet tarmog'isiz tasavvur etish birmuncha qiyin. Shu jumladan, kutubxonalarni ham. Biz so'z ochgan kutubxona ham Internet tarmog'iga ulangan bo'lib, bu kutubxonadagi ish sifatining yanada ortishiga xizmat qilmoqda. Kitobxonlar Internet tarmog'idan asosan tezkor axborot olishda, til o'rganishda, eng zamonaviy kutubxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishishda, turli ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi videoroliklarni topishda foydalanadi. Shuningdek, Internet tarmog'i axborot-resurs markazlari, “Kitobxonlar klubi” a'zolari bilan onlayn muloqot qilishda ham qo'l kelmoqda.

## FAOL KITOBXON OILALAR

Harbiy qism kutubxonasi faoliyatidan mamnun kitobsevar harbiylar har yili Mudofaa vazirligi miqyosida bo'lib o'tadigan tanlovlarda okrugning sha'nini munosib himoya qilib kelayotganligi quvonarli hol, albatta. 2020-yili kapitan Zuhridin Alijanovning oilasi “Eng yaxshi kitobxon oila” ko'rik-tanlovining g'olibi bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda kichik serjant Faxriyor Raxmonovlar oilasi faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritishdi. Albatta, bu kabi yutuqlar zamirida yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish, kitob o'qish istagida bo'lgan yoshlarga imkoniyatlar yaratish va kutubxonalar faoliyatini tubdan takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng islohotlar samara berayotganidan darak.

Ha, Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda kitobxon harbiy oilalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Qush uyasida ko'rganini qiladi, deganlaridek, qo'lida kitob tutgan ota-onadan ibrat olayotgan farzandlar ham kitob o'qib, ulg'aymoqda. Kitobga mehri baland farzandlar haqida gapirganda esa ertangi kunga bo'lgan ishonchimiz yanada ortaveradi.

**Shohista ABDURAHMONOVA,**  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati bosh mutaxassisi

qilganmiz. U yerda qoraqalpoq adabiyotining yirik vakillaridan Ajiniyaz, Kunxo'ja, Berdaq, Ibrayim Yusupov, yozuvchilarimizdan To'lepbergen Qayipbergenovning o'zbek, qoraqalpoq va rus tillariga tarjima qilingan asarlari o'rin olgan. Shuningdek, kutubxonamizda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti muzeyi hamda Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda tez-tez adabiy-badiiy kechalar tashkillashtirib

## ONLAYN TA'LIM:

qulaymi yo noqulay?

Mana, ikki yildan oshdiki, butun dunyo koronavirus infeksiyasi bilan kurashmoqda. Pandemiya sharoiti inson hayotining deyarli barcha sohalariga bevosita ta'sir o'tkazib ulgurdi. Odatiy hayot tarzini murakkablashtirgani ham bor gap. Ushbu sinovli davrning ilk kunlaridayoq butun dunyodagi kabi yurtimizda ham tezkor choralar qo'llanildi. Asosiy maqsad insonlarning salomatligini asrash, yo'qotishlarning oldini olish bo'ldi.

Ta'lim to'liq onlayn shaklga o'tkazildi, bir qator sohalar faoliyati cheklandi. Favqulodda kuzatilgan hodisa bo'lgani uchun ta'lim berish jarayonidagi bir qator kamchiliklar ko'zga tashlandi. Avvalo, aloqa sifatining pastligi bo'lsa, ikkinchi tomondan onlayn ta'lim ko'nikmasining shakllanmagani qiyinchilik tug'dirdi. O'tgan vaqt ichida esa kamchiliklar bosqichma-bosqich bartaraf etishga harakat qilindi va ijobiy natijalarga erishildi. Xabarimiz bor, yurtimizda koronavirusning yana bir to'liqini qayd etildi. Shunga ko'ra, ta'lim an'anaviydan qayta onlayn shaklga o'tkazildi. Xo'sh, bu haqida talabalarning fikrlari qanday? Onlayn ta'lim ularni qoniqtiryaptimi?

## "OLDI-QOCHDI" O'TMAYDI

Dilnoza ATOYEVA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi



Albatta, an'anaviy darslarga hech nima yetmaydi. Onlayn ta'limning birmuncha noqulayliklari bor. Texnik nosozliklar, internet muammosi, talabalar davomati va hokazo. Biroq ikkinchi tomonisiz tanga bo'lmaydi. Sohamiz amaliyot bilan chambarchas bog'liqligi bois ham ishlashga, ham o'qishga ulgurish imkoniyati tug'ildi.

Shuningdek, yakuniy nazoratlar ham onlayn bo'lgani menga juda ma'qul. Sababi "talaba zotiga tekkan kasal" borki, bir kun qolganda imtihonga tayyorlanadi va ertasi kuni nimani eslab qolgan bo'lsa, qog'ozga to'kib, "aravani quruq olib qochadi". Yoxud "eplagan qandini ursin" tamoyiliga amal qiladi. Onlayn nazorat ishi yozayotganda esa har joydan manbalarni qidiradi, internetni "titkilaydi". Axir u daftar emaski, to'rtta oldi-qochdi gap bilan varaq to'ldirsa. Javob yozish asnosida qo'lida ilmiy baza hosil bo'ladi. Bu ma'lumotlardan kelajakda ham foydalanishi mumkin.

Dastlabki karantin cheklavlari bekor qilinib, darslar an'anaviy shaklga o'tkazildi. Kursdoshlarimda ham kuzatdim, ma'ruza zalida o'tirib, 80 daqiqa o'qituvchini tinglab o'tirish zerikarlilik tuyulib qolgan. Onlayn dars vaqtida har tomonlama vaziyatni inobatga olgan holda mavzuning asosiy qismi o'qituvchi tomonidan "Zoom" orqali gapirib berilardi. Va to'liq o'zlashtirishi uchun ko'plab ilmiy manbalar bilan ta'minlanardi. Talabalar esa o'zlariga kerakli bilimni o'zlashtirish uchun harakat qiladi. Shu jihatdan onlayn ta'lim qisqa vaqtda bo'lsa ham o'zining ustun tomonlarini ko'rsatib berdi. Kelajakda onlayn ta'lim tizimi yanada takomillashtirilib, talabalarning amaliyoti va o'zini ustida ko'proq ishlashi uchun imkoniyat yaratilsa, yaxshi bo'lardi, nazarimda.

## JONLI BAHS-MUNOZARA VA MULOQOT YO'Q

Umrzoq EMINOV, Toshkent davlat stomatologiya instituti davolash ishi yo'nalishi talabasi



Onlayn ta'lim tizimiga o'tilgan kunlardan boshlab qator muammolar yuzaga keldi. Ba'zi talabalarda texnika vositalarining yetishmasligi, hattoki, oilada bitta gadget bo'lib, undan foydalanish uchun navbatga turishiga to'g'ri kelganining ham guvohi bo'ldik. Qolaversa, internet tezligining nafaqat hududlarda, balki viloyatlarning markazida ham pastligi, ba'zi joylarda internetga ulanish imkoniyatining deyarli yo'qligi takror-takror e'tirozlariga sabab bo'ldi. To'g'ri, bular bartaraf etilar, ammo masofaviy ta'lim auditoriyada kechadigan jonli bahs-munozaralar va muloqotni bera olmaydi.

Boshqa sohalar haqida fikr bildirmayman, gap tibbiyot yo'nalishi haqida ketar ekan, ta'limning onlayn shakli o'zini oqlamaydi. Balki bu hozirgi holatdan olgan xulosamdir. Bu sohada ta'lim olayotganlarga ertaga insonlarning salomatligi, ularning hayoti ishonilar ekan ta'limga jiddiy e'tibor qaratish kerak. Boshqa oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotganlarga nisbatan bizga kuchliroq talab qo'yilgan. O'qituvchilarning o'z pozitsiyasi bor. Nazariy bilimlarimiz talabga javob bermasa, fikrida qat'iy turadi – yakuniy nazoratdan o'tkazmaydi.

To'g'ri, ba'zan yoshligimizga borib, holatdan noliymiz, og'rinamiz. Ammo bu talabning to'g'riligini anglaymiz. Talabalarning o'z bilim va ko'nikmalarini amalda namoyon qilishi, uni rivojlantirishi uchun o'qituvchi bilan o'rtada o'rnatilgan doimiy aloqa sabab offlayn ta'limning imkoniyatlari cheksiz. O'qituvchini his qilasiz. Quruq nazariyani yodlagandan ko'ra, jarayonda o'rganish, bilmagan yoki tushunmay qolgan elementlarini o'sha vaqtda so'rab, o'rganganini samaraliroq.

## DIPLOMNI QO'LGA OLISH OSONMAS

Muhammad IKROMOV, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti talabasi



Mening nazarimda, masofaviy ta'lim, albatta, kelajak ta'limi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari allaqachon bu usuldan foydalanishadi. Ularda davomat, formadan ko'ra sifatli kadrlar tayyorlash masalasi muhim. Talabalarning o'z ustida ishlashi turli usullar bilan rag'batlantiriladi va munosib sharoit yaratishadi. Albatta, shunga yarasha talab ham qo'yiladi. Qisqacha aytganda, diplomni qo'lga olish osonmas. Bu mavzuning bir tomoni bo'lsa, uning boshqa sabablari ham bor...

Yaqinda bir qiziq statistik ma'lumotni o'qib qoldim. Dunyo bo'ylab oliy ta'lim oluvchilar soni 207 milliondan ortiq bo'lib, ularning 100 milliondan ziyodi onlayn darslardan faol foydalanish imkoniyatiga ega. Onlayn ta'limni tanlagan talabalarning 46 foizi oliy ta'lim muassasasiga borish imkoniyatini yo'qligi, 21 foizi onlayn kurslar ularning qiziqishiga mosligini qayd etgan. Bundan tashqari 21 foizi o'zining sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan ishxonadagi rag'batlantirishlar sabab, 8 foizi ta'lim muassasasining nufuzi, qolgan 4 foizi esa boshqa turli sabablarni ko'rsatgan. Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, onlayn ta'limga to'sqinlik qilayotgan ba'zi unsurlar tezroq bartaraf etilib, xalqaro talablarga mos darajaga olib chiqilsa, o'ylaymanki, bizda ham ta'limning bu turini qo'llaydiganlar soni yuqori bo'ladi.

## SPORTDA NAZARIYADAN AMALIYOT MUHIM

Azizjon UMAROV, O'zbekiston Milliy universiteti sport faoliyati (taekvondo WT) yo'nalishi talabasi



Yoshligimdan sportga qiziqqanim bois ta'limning keyingi bosqichini ayni shu yo'nalish bo'yicha tanlagandim. Sport doimiy o'z ustida ishlashni talab qiladi. Ayniqsa, murabbiyning nazorati va tavsiyasi muhim ahamiyatga ega. Aks holda mashg'ulotni mustaqil bajarsa, qandaydir e'tiborsizlikka yo'l qo'yib, o'ziga jismoniy shikast yetkazib qo'yishi ham mumkin.

Hozirda ta'lim faqat nazariyadan iborat bo'lib qolgan. Nazariyani o'rganish yaxshi, albatta. Lekin nazariyaning o'zi bilan sportda natija ko'rsatib bo'lmaydi. Buning uchun doimiy jismoniy mashg'ulot zarur. Shu jihatdan onlayn ta'limga biz uchun foyda kam. Yana bir tomoni ayni vaqtda yakuniy nazorat topshirish pallasidamiz. Amaliy topshiriqlarni video yozuvga olib, murabbiyga jo'natishimiz kerak. Shunga ko'ra, bizning jismoniy imkoniyatlarimiz baholanadi. Aslida, muhit ham katta ta'sir qiladi sportchiga. Atrofidagi uni kuzatib turganlar bo'lsa, sportchi psixologiyasiga ham ta'sir o'tkazib, u yaxshiroq natijaga erishishi mumkin.

## QUVONGANLAR HAM BO'LDI. CHUNKI...

Alisher USMONOV, Toshkent davlat transport universiteti talabasi




Talabalarni an'anaviy ma'ruza va seminar darslar bilan qiziqtirish qiyin bo'lib qolgan. Qiziqish bo'lmasa, ta'lim olishga bo'lgan intilish ham "o'ziga yarasha" bo'lib qoladi. Darslar bir oy muddatga yana onlayn tartibga o'tganidan quvonganlar ham bo'ldi. Buning turli sabablarini ko'rishimiz mumkin. Bir tomoni ijtimoiy ahvolga borib taqaladi. Chunki talabalarni to'liq turarjoy bilan ta'minlashning imkoniyati yo'q. Shahar bo'ylab ko'chib yurishlar-u, qanday ish bo'lsayam ishlab, o'z aravasini o'zi tortishiga to'g'ri kelishi bosh masalaga aylanib qolgan. Hammaning ham darslarga qatnab, qolgan vaqtini o'zi ustida ishlashga imkoniyati to'g'ri kelmaydi...

Agarda an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllari uyg'unlashtirilib, ta'lim usuli yangi bosqichga olib chiqilsa, ko'p sonli talabalarni qiyinaydigan masalalarga yechim bo'larmidi?!



# “BUSTER DOZA”!



## U INSONLARDA TURG'UN IMMUNITET HOSIL QILADI(MI)?

**Salomatlikni saqlash borasida o'z vaqtida va o'rnida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasi ijobiy bo'lishini yurtdoshlarimiz pandemiya davrida anglab yetgani bor haqiqat. Mamlakatimizda Yurtboshimiz tashabbusi bilan tezkor ravishda epidemiyaga qarshi profilaktik va cheklov tadbirlarining o'tkazilishi, aholining koronavirusdan kamroq talafot ko'rishiga zamin yaratdi. Bu muhim tadbirlar orasida, albatta, aholini kasallikka qarshi emlash o'ziga xos o'rin egalladi. Shuning uchun ham bu jarayon tizimli ravishda yo'lga qo'yildi.**

Hozirgi kunda yurtimizda koronavirus infeksiyasiga qarshi emlangan aholi qatlamini hukumat qaroriga asosan qaytadan “Buster doza” bilan emlash ishlari o'tkazilmoqda. Xo'sh, “buster doza” nima? Vaksina yuqumli kasallikka qarshi immun qarshilik ko'rsatishda qanchalik ahamiyat kasb etadi? U yangi paydo bo'layotgan “britancha”, “delta” va “omikron” shtammlariga ham ta'sir ko'rsata oladimi? Umuman olganda, harbiy xizmatchilar orasida o'tkazilgan emlash kampaniyasi kutilgan natijani berdimi? Shu kabi savollarga javob olish

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, O'zbekistonda profilaktik chora-tadbirlar bilan birgalikda, aholini koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash ishlari o'tkazildi. Emlashni o'tkazishdan maqsad koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish, kasallanish xavfini, asoratlari va o'lim holatlarini kamaytirishdan iborat.

**– Shu o'rinda savol tug'iladi: emlash yuqumli kasallikka qarshi immun qarshilik ko'rsata oladimi?**

ko'ra, COVID–19 bilan kasallanib o'tgan yoki unga qarshi to'liq emlash kursini olganlar orasida “britancha”, “delta” va “omikron” shtammlari bilan kasallanish darajasi 19 foizni tashkil etgan. Shunga o'xshash ma'lumotlar Kanada, Isroil, Janubiy Afrika va Daniyada o'tkazilgan tadqiqotlarda ham kuzatilgan.

**– Yurtimizda aholi orasida emlash kampaniyasi boshlanganida uning keyingi asoratlari haqida har xil mish-mishlar paydo bo'ldi. Bunga qanday munosabat bildirasiz?**

– Haqiqatda ham koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash kampaniyasi boshlangan kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda emlashning nojo'ya ta'sirlari, emlashdan keyingi asoratlari va o'lim holatlari to'g'risida chiqishlar bo'ldi. Bu “antireklama”lar vaksina ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalarning o'zga kompaniya mahsulotini kamsitish maqsadida o'ylab topilgan “iqtisodiy o'yini” hisoblanadi. To'g'ri, vaksina – bu begona oqsil hisoblanadi, shuning uchun ham ularni qo'llaganda mahalliy (og'riq, qizarish, qichishish, shish) va umumiy (tana haroratining ko'tarilishi, qaltirash)

– “Buster” so'zi ingliz tilidan tarjima qilinganda “qo'llovchi”, “ta'sirni kuchaytiruvchi”, “qo'shimcha quvvat beruvchi” ma'nosini beradi. Dunyo amaliyotida, bolalarning turli yuqumli kasalliklarga qarshi immunitetni shakllantirishda ularni emlash va ma'lum muddatdan so'ng qayta emlash yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida kasallikka qarshi turg'un immunitet paydo bo'lishiga erishiladi.

Inson dunyoga kelgan kundan boshlab tabiatda mavjud bo'lgan infeksiyalarga duch keladi. Shuning uchun respublikada qabul qilingan emlash kalendariga asosan farzand tug'ilgan kundan qaysidir infeksiyaga qarshi emlanadi. Misol uchun, yangi tug'ilgan chaqaloq gepatitning V turiga qarshi emlanadi, 2 oydan keyin qayta emlanadi, 6 oylikda yana emlanadi. Sil kasalligiga qarshi esa bola tug'ilgandan boshlab to 14 yoshga yetgunga qadar 3 marta emlanadi. Bo'g'ma-qoqsholga qarshi esa 16 yoshgacha 6 marta qayta emlanadi.

Olimlar tomonidan o'tkazilayotgan tadqiqotlardan olingan birlamchi



uchun Mudofaa vazirligi Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi shifokor-mutaxassisi Baxtiyor Ahmedovga murojaat qildik.

**– Ikki yildan buyon koronavirus infeksiyasi butun Yer yuzi aholisiga katta talafot yetkazdi. Afsuski, yildan-yilga ushbu virusning yangi turlari tarqalmoqda. Bu esa insoniyatni qo'rquv va dahshatga solayotgani bor haqiqat. Ayting-chi, virusning yangi turlari qanday sabablar bois paydo bo'ladi?**

– Viruslar tabiatda muntazam aylanib yurganligi sababli o'zgarib turadi, ya'ni mutatsiyaga duchor bo'ladi, natijada viruslarning yangi turi paydo bo'ladi. Tabiiy tanlanishning bosimi ostida viruslarning faqat eng chidamli shakllari saqlanib qoladi. Bunday holatlarda viruslar orasida genlarning o'zaro ta'siri natijasida yangi rekombinant shakl vujudga keladi. Koronavirusning “britancha”, “delta” va “omikron” shtammlari ham shu tariqa vujudga kelgan.

**– Yurtimizda koronavirus infeksiyasi va uning yangi shtammlarining keng tarqalishiga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda?**

– Bugungi kungacha koronavirus infeksiyasini bartaraf etish maqsadida butun dunyo olimlari chuqur izlanishlar olib borishmoqda. Respublikamizda ham koronavirus infeksiyasining yangi shtammlarining kirib kelishi va tarqalishining oldini olish maqsadida bir qator cheklov tadbirlari amalga oshirilmoqda.

– Vaksinalar inson tanasiga yuborilganda faol sun'iy immunitet hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan, mikroorganizmlardan yoki ularning ajratmalaridan tayyorlangan biologik vositalardir, ular yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun mo'ljallangan.

Qadimdan Xitoyda chechak kasalligi bilan og'rikan bemorlar yarasi suyuqligini sog' odam tanasiga singdirish bilan ushbu kasallikdan himoyalash usuli mavjud bo'lgan. Keyinchalik ushbu usul bilan Hindiston, Osiyo va Yevropada kasallikdan himoyalangan.

Yuqumli kasalliklarga qarshi emlash usulini birinchi marta 1796-yilda Edvard Jenner qo'llagan va yaxshi natijaga erishgan. O'sha davrlarda emlashning foydasi tufayli chechak, chinchechak, vabo, kuydirgi, qoqshol va bo'g'ma kasalliklari tufayli o'limning darajasi keskin kamaygan. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, har yili emlash natijasida 3 millionga yaqin bola o'limgan saqlab qolinadi.

**– Vaksinalar yangi paydo bo'layotgan “britancha”, “delta” va “omikron” shtammlariga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?**

– Hozirgi kunda dunyo olimlari, shu bilan birgalikda O'zbekiston olimlari tomonidan emlangan aholi o'rtasida immun taranglik darajasi va uning davomiyligi o'rganilmoqda. Angliyada o'tkazilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasiga

reaksiyalar kuzatilishi mumkin, lekin ko'p holatlarda emlashdan keyin reaksiyalar deyarli kuzatilmaydi.

**– Harbiy xizmatchilar orasida o'tkazilgan emlash kampaniyasi qanday natija berdi?**

– Mudofaa vazirining tegishli buyrug'iga asosan, 2021-yilning may oyidan boshlab barcha harbiy qism va muassasalarda koronavirus infeksiyasiga qarshi ommaviy emlash ishlari o'tkazildi. 96 foiz harbiy xizmatchilar uchun bosqichda koronavirusga qarshi emlash bilan qamrab olindi. Emlash ishlari o'tkazish uchun asosan xitoylik hamkorlar bilan birgalikda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan ZF-UZ-VAC-2001 vaksinasidan foydalanildi. Emlanganlar orasida jiddiy asoratlari kuzatilmadi. Tahlillarga ko'ra, harbiy xizmatchilar orasida 2021-yil avgust oyining ikkinchi yarmidan boshlab kasallanishning keskin kamayishi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich ZF-UZ-VAC-2001 vaksinasining yuqori samaradorligini bildiradi.

Dunyo olimlari tomonidan hozirgi kunda keng tarqalayotgan “omikron” shtammi bilan og'rikan bemorlarda xastalik aksari yengil va o'rta og'irlikda o'tishi, bemorning koronavirus infeksiyasi bilan oldin bir marta kasallanib o'tgani yoki ushbu kasallikka qarshi emlangani sabab bo'lishi mumkinligi taxmin qilinmoqda.

**– “Buster doza” nima? U insonlarda turg'un immunitetni shakllantirishda qanchalik ahamiyatga ega? Shu haqda ham ma'lumot bersangiz.**

ma'lumotlarga ko'ra, koronavirusga qarshi emlanganlarda immunitetning davomiyligi o'rtacha 6 oyni tashkil etishi kuzatilgan. Ushbu muddat o'tgandan so'ng immunitetni “qo'llash, kuchaytirish” maqsadida koronavirusga qarshi vaksinalardan birini qo'llagan holda “buster doza” bilan 1 marta qayta emlash tavsiya etilmoqda.

Harbiy xizmatchilar orasida koronavirus infeksiyasiga qarshi bir oy oralatib 3 marta emlash ishlari o'tgan yilning may oyi oxirlarida boshlanib, iyul oyida yakunlanganini inobatga olgan holda, ularni “buster doza” bilan 1 marta qayta emlash ishlari ushbu yilning fevral oyida rejalashtirilmoqda.

Shuni yodda tutish lozimki, emlash bilan aholining asosiy qismini qamrab olish bilangina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Yaratilgan imkoniyatdan foydalangan holda koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash tadbirlarida faol ishtirok etib, kelgusida o'z sog'lig'imizni asrash va shu bilan birga respublikada koronavirus pandemiyasini yengish uchun barchamiz mas'ulmiz.

**Tibbiy xizmat mayori  
I. ABDUKARIMOV,  
tibbiy xizmat mayori N. OMONOV,  
Mudofaa vazirligi  
Sanitariya-epidemiologiya nazorati  
markazi bo'linma boshliqlari**

# HARBIY PSIXOLOG

## VA SOTSIOLOGLAR MAHORATI OSHIRILMOQDA

Toshkent harbiy okrugiga qarashli aloqachilar harbiy qismida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida faoliyat olib borayotgan psixologik xizmat mutaxassislari (*harbiy psixolog va sotsiologlar*) ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.



Harbiy psixolog va sotsiologlar faoliyatini tahlil qilish, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish maqsadida tashkil etilgan uch kunlik yig'in davomida tajribali mutaxassislar tomonidan shaxsiy tarkib o'rtasida psixologik ishlarni samarali tashkil etish, psixotreninglarni o'tish metodikasi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Shuningdek, jamoani jipslashtirish, harbiy xizmatchilar bilan ishlashda oila psixologiyasining ahamiyati, suitsid alomatlarini erta aniqlash va Mudofaa vazirligining barcha harbiy okruglari, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligi hamda harbiy qismlardagi psixologik xizmat mutaxassislari ishtirok etgan tadbirda axborot xurujlarining shaxs

psixologiyasiga salbiy ta'siri xususida ma'lumot berildi. Muammoli vaziyat bo'yicha tayyorlangan keyslar yordamida ijtimoiy-psixologik xizmat faoliyatida uchrayotgan muammo va kamchiliklar atroflicha muhokama qilindi. Bundan tashqari, "Anketa so'rovi va anketa tuzish texnologiyasi", "Ruhiiy zo'riqish va agressiyasi yuqori bo'lgan harbiy xizmatchilarni aniqlash metodikalari", "Harbiy xizmatchilar orasida "gambling" va onlayn qimor o'yinlariga tobelikni psixoprofilaktika qilish yo'llari", "Qo'shinlarda "Prognoz-2" va "Tugatilmagan gaplar" metodikasini amaliy qo'llash", "Korrupsiyaning kelib chiqish sabablari va huquqiy tabiati" singari treninglar qatnashchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Profilaktika qilish, oilaviy nizolarni hal etish usullari tahlil etildi.

– Shaxsiy tarkibning ruhiy barqarorligini, jamoada sog'lom muhitni ta'minlashda ruhshunos va sotsiologlarning o'rni katta, – deydi Mudofaa vazirligi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bo'limi boshlig'i podpolkovnik Sherzod Ravshanov. – Ushbu yig'inda qo'shinlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-psixologik tadbirlarning joriy holatini sifati jihatidan yuksaltirish hamda ilg'or tajribalarni ommalashtirishga alohida e'tibor qarattildi. Yig'in ishtirokchilariga harbiy xizmatchilar va oila a'zolari bilan ishlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berildi.

Leytenant Dilshod RO'ZIQULOV

Ko'chma zenit qurilmasi (*PZRK*) dan shartli dushman samolyoti, vertolyoti yoki uchuvchisiz uchish apparatlarini raketa yordamida urib tushirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni endilikda respublikamizning qaysidir dala-o'quv maydonida emas, balki Quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa mutaxassislari uchun tashkillashtirilgan o'quv kursida kuzatish mumkin.

## HAM ZAMONAVIY, QULAY



Ilgari bunday kurslar Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazida o'tilardi. Mudofaa vazirligining tashabbusi bilan Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida ko'chma zenit qurilmalaridan amaliy o'tish mashqlarini bajarish uchun kompyuterlashtirilgan trenajyor o'quv sinflari tashkil etildi.

Bilim yurti Quruqlikdagi qo'shinlar havo hujumidan mudofaa kafedrasidagi o'quv sinflari va kursining muhim jihatlari juda ko'p. Birinchidan, bu yo'nalishda xizmat burchini o'tayotgan harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi bo'yicha ko'nikmalarini doimiy tarzda shakllantirib borish ta'minlandi. Ikkinchidan, trenajyor o'quv sinflarida o'tish mashqlarini har qanday sharoitda ham bajarish mumkin. Buning uchun qulay ob-havo sharoiti, dala-o'quv maydoni yoki jangovar raketalar bo'lishi muhim emas. Hozirda ilk o'quv kursiga barcha harbiy okruglardan tinglovchilar taklif etilgan. Ular 72 soatlik amaliy va nazariy mashg'ulotlar davomida o'z mutaxassisliklari toifalariga ega bo'lishadi.

Shu o'rinda o'z-o'zidan kompyuterlashtirilgan trenajyor o'quv sinflarida bajariladigan mashqlar real holatga qanchalik yaqin bo'ladi, degan haqli savol tug'iladi. O'quv kursi rahbari podpolkovnik Farhod Jamolovning ta'kidlashicha, tinglovchilar trenajyorlarda bajarayotgan mashqlar jangovar vaziyatga 80–90 foiz to'g'ri kelishi, ular orasida Xalqaro armiya o'yinlarining "Musaffo osmon" yo'nalishida sovrindor bo'lgan harbiy xizmatchilarning borligi yanada ahamiyatli. Negaki, armiya o'yinlari ishtirokchilari o'quv kursi davomida xalqaro tajribalarini boshqa quroldosh do'stlari bilan o'rtoqlashgan holda ko'nikmalarini mustahkamlab borishmoqda.

Asror RO'ZIBOYEV

Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligiga qarashli harbiy qism va muassasalar ishtirokida "Korrupsiya – millat kushandasi" mavzusida onlayn konferensiya bo'lib o'tdi.

## KORRUPSIYA – MILLAT KUSHANDASI

Tadbirni Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlari bo'yicha o'rinbosari polkovnik Davron Usmonov olib bordi. So'zga chiqqan mutasaddilar korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz kurashish kundalik hayot tarzimizga aylanishi, bu illatga qarshi kurashishda barcha davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, umumiy aytganda har bir fuqaro safarbar etilishi zarur ekanligini ta'kidladi.

Mudofaa vazirligi yetakchi mutaxassisi Zulfiya Mansurova ayrim harbiy xizmatchilarning o'z nafsiga qul bo'lishi achinarli holat ekanligiga e'tibor qaratdi. "Bu girdobga tushib qolayotganlarning aksariyati rafiqasining ortiqcha dabdabasi va ehtiyojlarini qondirish uchungina bo'lmoqda. Erkakning topganiga qanoat qiladigan, imkoniyatidan tashqari moddiyatga majburlamaydigan ayoli bor xonadonning erkaklari bunday qabih ishlarga hech qachon qo'l urmaydi. Shuning uchun posbonlarimiz rafiqalariga shuni aytmochimanki, har doim nazarangiz to'q bo'lsin! Boriga shukr, yo'g'iga esa sabr qilishni o'rganishingiz kerak. Doim o'zimizdan "yuqori"dagilarga qarab intilavermasdan, gohida "pastga" ham qarab qo'yishingizni so'rab qolaman", deya o'z so'zini yakunladi.

Adliya podpolkovnigi Ilhom Salomov korrupsiyaning har qanday ko'rinishi uchun qonun oldida javobgarlik borligini tegishli moddalar bilan izohlab berdi. Ishtirokchilarning savollariga javob berarkan, harbiy xizmatchilar Vatanimiz sarhadlarini qo'riqlash bilan bir qatorda, xalqimizga har jabhada o'rnak bo'lishi kerakligini ta'kidladi.



Muallif suratga olgan

Sherzod SHARIPOV,  
"Vatanparvar"

## YANGI JARAYONLAR BO'SAG'ASIDA

Navoiy viloyati mudofaa ishlari boshqarmasida "Ma'naviy yuksalish kuni" munosabati bilan "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Navoiy viloyat mintaqaviy bo'linmasi a'zosi Ilyos Qo'ljonov so'zga chiqib, taraqqiyot strategiyasida kelgusi besh yilda mamlakat taraqqiyotini to'laqonli ta'minlab berishga qaratilgan yettita yo'nalish va yuzga yaqin maqsad jamlanganini, bu ezgu intilish esa bugungi globallashuv jarayonida Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan roli hamda o'rnini oshirish bilan birga, xalq farovonligi, tinchligi, demokratiya va inson huquqlari kafolatini ta'minlaydigan erkin jamiyat va adolatli davlat qurishga hamda mamlakat xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, faol tashqi siyosat olib borishga katta hissa qo'shishini yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar misolida tushuntirib berdi.

Ishtirokchilar mavzu bo'yicha o'zlarini qiziqitirgan barcha savollarga javob oldilar.

F. JO'RAYEV



# ТАҚДИР



– Қайсар, ўжар... Сен ўз-мир жуда ҳаддингдан ошиб кетдинг! – ҳовлидаги сўрида ўтирган Баҳридил опа очик турган дераза томон жон куйдириб жаврарди.

– Барибир айтганингиз бўлмайди! – ичкаридан йиғи аралаш товуш келди.

– Ҳали тоғанг келсин, ўшанда гаплашамиз.

– Нимани гаплашамиз, опа? – она-боланинг тортишувини ташқаридан эшитиб келаётган Эршод юзлари ғамли опасининг ёнига ўтирди. – Тинчликми?

Кўкси тўлиб турган Баҳридил опа йиғлаб юборди.

– Кўрмайсанми, шу... шу кизни деб умрим ўтди. Ёши қирққа боряпти ахир.

– Опа, опажоним, – йиғисини тўхтата олмаётган Баҳридил опанинг елкасидан кучди Эршод, – Дилкушо қирққа бораётгани йўқ, энди ўттиздан ошди. Ёш бўлса ҳам бошидан кўп синовлар ўтди. Мана, кўрасиз, ҳаммаси яхши бўлади, сиз орзу қилгандек бўлади.

– Кўнмаяпти... ҳеч бир совчига кўнмаяпти. Энди оила қурмайман, деяпти.

– Кўнади, кўндирамиз, қани, кўз ёшингизни артинг...

Салобатли, нақшинкор дарвоза олдига юк машинаси келиб тўхтади. Хонадон соҳиби Мустафо ака машинада нима келганлигини сезиб турарди. Қизининг кўчи. Кунни кеча эркак куда шу ҳақда гап келтириб ўтганди. – «Нима учун бу қадар тез», дилидан ўтказди у. Янги туққан, ҳали чилласи чиқмаган она-болага қилинган бу адолатсизлик, зулм отанинг юрагига ханжардек санчилди. «Маслаҳатсиз, рози-ризоликсиз... Бу нима дегани? Тўғри, Баҳридил энди фарзанд кўролмади. Шифокорлар она-боланинг ҳаётини бозўр асраб қолди. Аммо куда томон озгина сабр қилса бўларди-ку!» – алам билан уҳ тортди ота. – Ҳозир хотиним қизининг кўчи келганлигини сезиб қолса, фиғони фалакка чиқади, қон босими кўтарилиб, мазаси қоцади. На илож, осмон йироқ, ер қаттиқ».

– Хотин, қаердасан, менга қараб юбор.

– Ҳози-ир, – ичкаридан Муқаддам опанинг товуши келди.

Мустафо ака хотинига вазиятни тушунтириб улгурмай, дарвозахона томондан овоз эшитилди ва икки йигитнинг қораси кўринди. Улар кўчни туширишга шай турарди. Ҳовлига тушиб келган Муқаддам опа уларни кўриб, ҳайратланди.

– Булар ким, дадаси, куда томонга ўхшайдими?

– Янглишмадинг, аёл қуданинг жиянлари. Сени шунга чақиргандим. Улар қизининг... – Мустафо ака сўзини давом эттира олмади, қия очик дарвоза эшигидан кўриниб турган юк машинасига имо қилди.

Муқаддам опа вазиятни дарҳол тушунди, тек қотди. Унинг шу аснода кўллари, вужуди, юраги титрарди. Қудаларнинг муомаласидан шу куннинг келишини ҳис қилган аёл маълум фурсат ўтиб, ўзини кўлга олди. Айни дақиқада эрига, қизига руҳан таянч бўлиши лозимлигини англаб етди.

– Майли, сиқилманг, дадаси, пешонада борини кўрамиз, – ички дард билан синиқ жилмайди Муқаддам опа. – Бахтимизга қизимиз, неварамиз соғ-омон. Шунинг ўзи бизга кифоя. Агар боламга бир гап бўлганида... Аллоҳим айрилиқдан асрасин. Кўчни мана бу уйларга ташийверсин, – айлана қурилган уйларнинг эшигини очишга чоғланди аёл. – Кейин ўзимиз жойлаштириб оламиз.

Хотинидан йиғи-сиғи кутган Мустафо ака кўз ёшини ичига ютганини кўриб, анчайин дадилланди...

Орадан йиллар ўтди. Нуфузли, бой-бадавлат хонадоннинг ёлғиз қизи – Баҳридилни сўровчилар кўп бўлди. Аёли вафот этган, хотинидан ажралган, вақтида оила қурмай умри ўтган турли тоифадаги эркаклар...

У яқинларининг зўри билан учрашувга чиқиб ҳам кўрди. Ахир йигирма бир ёшида эрдан ажралган кўзга яқин кўхлик жувоннинг яна оила қуришга, бахтли бўлишга ҳаққи бор эди. Ота-онаси шуни истарди. Лекин Баҳридил...

– Нега ундай қилиясан, қизим, мақсадинг нима? – қизига куюниб дардини тўкиб солди Муқаддам опа. – Эринг аллақачон бола-чақали бўлиб кетган, ундан умид қилмасанг ҳам бўлади.

– Онажон, аллақачонлар эримни унутганман. Ўшани тилга олманг десам, яна... – кўзига ёш тўлди Баҳридилнинг. – Эрим сабаб бутун эркак зотидан кўнглим қолган. Аввал қайнона-қайнотамни айблардим. Кейин ўйлаб кўрсам, аслида ҳаммаси эримнинг қўлида экан. Агар ота-онасига хотиним, қизим менга керак, боламни етим қилмайман, улар билан яшайман, деганида, бу кунлар

бошимда йўқ эди.

– Ҳа-а, қудалар айтгандек, балки, боланг ўғил туғилганда...

– Бу менинг қўлимда эмас-ку, ахир! Қиз бўлса, нима бўпти?!

– Майли, куюнма, болам, – қизининг асабийлашаётганини кўриб, юмшадди она. – Энди даданг иккимиз сени ўйлаймиз-да. Акаларинг кўча одами, янгалар қўлида қолмасин, деймиз. Эрта келиб қизингни узатсанг, жиянларингга термилиб ўтирасанми, деб...

– Шунинг ўйласаларинг, қизим иккимизга ҳовли қилиб беринглар. Ўзимнинг ватаним бўлишини истайман.

– Қандай қилиб қизчанг билан ёлғиз чиқариб қўямиз?

– Сизлар мен билан бирга яшайсиз...

Ҳеч бир яқини Баҳридилни оила қуришга кўндира олмади. У битта сўзни такрорлашдан чарчамасди: «Қизимни бегона эркаклар кўлига ташламайман. Ҳозир менга совчи қўяётганларнинг барчаси сизларнинг нуфузингиз, бойлигингиз учун уйланмоқчи. Улар қизимга оталик қила олмайди. Уримни боламга бағишлайман».

Ҳаёт синовига жуда эрта рўбарў бўлган сеvimли қизларининг тақдири Мустафо ака билан Муқаддам опанинг ҳаловатига ҳар лаҳза чанг солиб турарди. «Унга акаларидан йироқда ҳовли қилиб бўлмайди. Ота-онани боғлаб бергани йўқ. Жигарларининг қаноти остида бўлгани маъқул. Қандай йўл тутас бўлади?» деган ўй билан яшаётган эр-хотиннинг мушқулини ён кўшнилари осон қилди: қутилмаганда ҳовлисини сотувга қўйди...

Баҳридил кўп ўтмай, отаси бошчилигида қурилган замонавий янги ҳовлига кўчиб кирди. Қизи ўн саккизга кирар-кирмас совчилар аридек «талади». Дилкушонинг олий маълумотли бўлишини истаган Баҳридил опа мақсадидан бир қадам ортга чекинди. Ота-онасининг кўзи очиклигида «ўзимиз ўқитамиз», деган бообрў хонадоннинг ёлғиз ўғлига узатишни лозим топди. Қолаверса, тезроқ набира кўришни истади.

Аммо бу тақдир гўзал Дилкушога кулиб боқмади. Қизгина эри билан беш йил аҳил-иноқ яшади, бироқ фарзанд кўрмади. Шифокорлар бунинг сабаби Дилкушога эканини аниқлагач, қайнона-қайнотаси унинг кўч-кўрони билан тинчгина онасининг олдига ташлаб кетди. Бир қараганда онанинг тақдири гўёки қизидан такрорланди. Лекин Баҳридил опанинг умид юлдузи – бағрида ойдек қизалоғи бор эди. Дилкушо эса... Онаизор куйди, ёнди, уйқусиз тунларнинг бедор бекасига айланди.

Вақт ўтиб, яна унинг эшигини совчилар қоқа бошлади. Кўзга яқин сулув Дилкушога ошиқларнинг бири қўйиб-бири уйланиш истагини билдирди. Улар орасида бўй йигитлар ҳам йўқ эмасди. Қизгина оқ либосда яна она уйини тарк этди. Бу гал унинг тақдири янада фожиали яқун топди. Икки йилга етмай, эри автоҳалокат сабаб, оламдан ўтди...

– Қизим, биласан, сендан бошқа умидим, сунчангим йўқ, – қизига мунгли қиёфада, ялинчоқ оҳангда сўз бошлади Баҳридил опа.

– Ота-онам менинг дардим билан ўтиб кетди. Тоғаларинг меҳрибон, лекин ҳаммасининг ўз оиласи бор, ўз дарди ўзига етарли. Бағрингда боланг бўлганда ҳам кўнглиннга қарардим, узатмасдим. Ёш умринг ёлғизликда ўтмасин дейман. Кейин... илдизим қуримасин, орқамда авлодим қолсин, дейман-да, болам.

– Икки бор оила қуриб, фарзанд кўрмадим, онажон. Учинчиси ҳам шундай бўлади. Яна дўхтирма-дўхтир югуриш, дори-дармон, сиқилиш, чорасизлик... Ўзимга ғам-андуҳни сотиб олиб, нима қиламан? Ундан кўра, иккимиз тинчгина яшаймиш, ўқидим, ишлаяпман, шу яхши-ку.

– Сен болали бўласан, қизим. Мен онаман, бунинг ҳис қиламан. Йўқ демагин, болам, сўраётганларнинг бирортасига...

– Кеча ишхонамда бир оила ҳақида гапириб қолишди. Жуда камбағал оилада оналари оламдан ўтиб уч бола етим қолибди. Ўша бева эркакка хотин излашаётган экан.

– Нима, сени ўшанга муносиб кўришдими, сўрашдими, шунча совчи туриб...

– Ҳеч ким сўрагани йўқ, шунчаки гапириб ўтишди. Аммо болаларга раҳмим келди. Бой-бадавлат жойларга келин бўлиб, бахт топмадим. Балки, шу етим болаларга оналик қиларман, нима дейсиз?

– Тоғаларинг билан маслаҳат қилишимиз керак – бошқа сўз топа олмайди Баҳридил опа.

Доимо тўкинликда, эътиборда яшган қизини қандайдир камбағалнинг кулбасида кўришни хаёл қилолмасди у. Укалари ҳам рози бўлмаса керак. Балки, қизи бошқа оила қурмаслик учун атайин айтгандир бу гапни. Яна ким билсин, бунинг тақдир дейдилар...


– Дилкушо айтган хонадонни суриштирдим, – опасига маълумот етказди Эршод. – Йигит ёмон эмас, хотини узоқ пайт касал бўлиб, оила анча чўкиб қолган. Топганини хотинини даволатишга сарфлаган. Агар қайсар қизингиз ўша йигитга рози бўлса, қарши бўлмаслигимиз керак. Оиласига ёрдам қиламиз, ҳаммаси яхши бўлади.

– Борингга шукур, ука, – енгил тин олди Баҳридил опа. – Бунда ҳам бир хосият бордир. Қийинчиликка чидаб, етимларнинг бошини силаса, Худойим улуг неъматидан бенасиб этмас...

Дилкушо йигитни кўриб, ҳайратда қолди. Бир пайтлар унга пана-паналарда зимдан термилиб, ортидан кузатиб юрса-да, севгисини ошкор эта олмаган ён кишлоқлик Мансур. Дилкушо дугоналари билан унинг устидан неча бор кулган бўлса, ажабмас. Йиллар ўтиб...

Йиллар ўтиб, уларни тақдир бирлаштирди. Дилкушо оиланинг кўнгли ярим болаларини меҳр ила бағрига босди. Уч йил ўтиб, Баҳридил опага суюнчили хабар келди: қизингиз ҳомиладор, эгизак набираларингиз бўлади...

Зулфия ЮНУСОВА,  
«Vatanparvar»



2021 йилда республикамиз бўйича 39 227 та никоҳдан ажралиш ҳолати қайд этилган.

- Тошкент шаҳри – 5 571 та
- Фарғона вилояти – 4 285 та
- Самарқанд вилояти – 4 149 та
- Тошкент вилояти – 4 067 та
- Андижон вилояти – 3 931 та
- Наманган вилояти – 3 153 та
- Қашқадарё вилояти – 2 867 та
- Сурхондарё вилояти – 2 264 та
- Бухоро вилояти – 2 080 та
- Хоразм вилояти – 1 504 та
- Қорақалпоғистон Р. – 1 442 та
- Сирдарё вилояти – 1 411 та
- Жиззах вилояти – 1 279 та
- Навоий вилояти – 1 224 та

2021 йилда республика бўйича 305 082 та никоҳ ҳолати қайд этилган.

## NAVBATDAGI HAY'AT YIG'ILISHI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuratori general-mayor Shuxrat Uzakov raisligida navbatdagi hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Videoselektor tarzida o'tkazilgan majlisda Respublika Harbiy prokuraturasi mahkamasi va hududiy harbiy prokuraturalarning barcha prokuror-tergov xodimlari ishtirok etdi.

Hay'at yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi organlarining Qurolli Kuchlarda qonuniylikni mustahkamlash, harbiy xizmatchilar hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida 2021-yil faoliyati muhokama qilindi hamda kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

**Adliya mayori Shohrux PULATOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i



Respublika Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik va idoralarda harbiy xizmatni o'tab kelayotgan harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, shuningdek, harbiy pensionerlar bilan sayyor qabullar o'tkazilmoqda.

## SAYYOR QABUL

Navbatdagi ommaviy sayyor qabul O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi o'rinbosari Sarvar Muxitdinov rahbarligidagi ishchi guruh tomonidan karantin qoidalariga qat'iy rioya qilingan holda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Xorazm viloyati boshqarmasida tashkil etildi. Unda boshqarma va unga bo'ysunuvchi tuman (*shahar*) bo'limlarida harbiy xizmatni o'tab kelayotgan harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilari ishtirok etdi.

Qabulda 80 nafardan ziyod ishtirokchidan 28 ta murojaat kelib tushdi. Murojaatlardan 8 tasi joyida ijobiy hal qilindi, 16 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, qo'shimcha o'rganish vaqt talab qiladigan 4 ta murojaatning hal qilinishi nazoratga olindi.

**Adliya polkovnigi Sherzod XAYITOV,**  
Respublika Harbiy prokuraturasi katta yordamchisi

## QO'SHINLAR O'RTASIDA ZARO HAMKORLIK

Qarshi harbiy prokuratori tashabbusi bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yosh askarlar uchun O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qarshi shahar kengashida ochiq eshiklar kuni tashkil qilindi. Unda Toshkent shahrida joylashgan Maxsus muhandislik qurilish batalyonida o'z yigitlik burchini o'tayotgan va ayni vaqtda Qashqadaryo viloyatida xizmat safarida bo'lib, "Obod qishloq, obod mahalla" dasturi doirasida olib borilayotgan ishlarga jalb qilingan 50 nafar yosh askarlar ishtirok etdi.

Tadbir davomida askarlar mamlakat Qurolli Kuchlari tizimidagi boshqa qo'shin turlari va ularning foydalanuvchilari bo'lgan qurol-aslahalar, harbiy texnika hamda anjomlar bilan yaqindan tanishdi. Shu kuni askarlarning jangovar vaziyat va favqulodda holatlarda qanday harakat qilish lozimligi haqidagi tushunchalarini yanada boyitish uchun muassasa mutaxassislari tomonidan maxsus harbiy-taktik o'quv mashg'ulotlari ham o'tkazildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat Qurolli Kuchlari tizimida mavjud qo'shin turlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, ularda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada oshirish yuzasidan o'zaro fikr almashishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish hamda harbiy xizmatchilarni Vatanimiz mudofaa salohiyati haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishdan iboratdir.

Tashrif so'ngida harbiy prokuratura taklifiga ko'ra, mutasaddilar o'rtasida kelgusida bu kabi tadbirlarni yanada ko'paytirish, har haftaning juma kunlarida ochiq eshiklar kuni tashkil qilgan holda, viloyat miqyosidagi favqulodda vaziyatlar tizimining boshqa muddatli harbiy xizmatchilarining ham jangovar va maxsus tayyorgarlik darajasini yanada yuksaltirish, bu boradagi malakasini oshirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishga kelishib olindi.

**Adliya kapitani Rustam SOBIROV,**  
Qarshi harbiy prokuraturasi katta yordamchisi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazida Qurolli Kuchlarda umumiy jinoyatchilik va korrupsiyaning oldini olish mavzusida profilaktik tadbir o'tkazildi. Unda Samarqand harbiy prokuraturasi vakillari va markaz shaxsiy tarkibi ishtirok etdi.

## VAYRONKOR KUCH XAVFI

Tadbirda so'zga chiqqanlar ishtirokchilarga korrupsiyaning salbiy oqibatlarini haqida batafsil ma'lumotlar berdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, korrupsiya, bu – milliy iqtisodiyotga putur yetkazuvchi, ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiruvchi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchini yo'qotuvchi, uyushgan jinoyatchilik kuchaytiruvchi ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan tadbirda ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar.

**Kichik serjant Bahromjon USMANOV**

## TAQDIRLASH MAROSIMI BO'LIB O'TDI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashida tashkilotning bir qator xodimlari va Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Jumladan, bir necha yildan buyon "Vatanparvar" tashkilotiga informatsion jihatdan amaliy yordam berib kelayotgan Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti boshlig'i o'rinbosarlari – Maqsud Abilov va Alisher Boboxonov "Vatanparvar" tashkilotiga 30 yil esdalik belgisi bilan taqdirlandi.

Shuningdek, tashkilot Markaziy kengashi raisi o'rinbosarlari Nurmuhammad Mulabayev va Xasan Mahmudov hamda boshqarma boshlig'i Davron Mustakimovga "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 30 yil" esdalik nishoni topshirildi.

"Vatanparvar" tashkilotining Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazi direktori lavozimida ishlab kelgan hamda bugungi kunga kelib nafaqaga kuzatilayotgan Majid Umarovga uzoq yillik samarali mehnati uchun chuqur minnatdorlik bildirilib, esdalik sovg'alari topshirildi.

**Laziz BO'RONOV,**  
O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi  
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot kotibi



# ILK TURNIRDAN OLTIN MEDAL

**P**ortugaliyada dzyudo bo'yicha yilning ilk yirik xalqaro musobaqasi – mukofot jamg'armasi 100 000 AQSH dollarini tashkil etuvchi Gran-Pri turniri bo'lib o'tdi. Unda yurtimizning 11 nafar dzyudochisi, jumladan, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham qatnashdi. Yakunda polvonlarimizdan biri chempion bo'ldi.



Avvalo shuni ta'kidlash joiz, dzyudoning ommaviylikini yanada oshirish maqsadida mutaxassislar tomonidan ushbu sport turida yangicha qoidalar tatbiq qilingan, Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) tomonidan yilning ilk xalqaro musobaqasi o'sha yangi qoidalar asosida o'tkazilishi belgilangandi. Tabiiyki, eski ko'nikmalarga odatlangan dunyoning bir qator katta tajribaga ega mahoratli dzyudochilarni ham Portugaliya Gran-prisida biroz qiynalishdi, bellashuvlar mobaynida o'z uslublarini erkin qo'llashlariga yangicha qoidalar xalaqit berdi. Shunga yarasha aksariyat vazn toifalari bo'yicha turnir g'olib va sovrindorlari ham avvaldan kutilganidek taniqli dzyudochilardan emas, balki yangicha nomlardan iborat bo'ldi.

Yilning dastlabki musobaqasida 41 ta davlatning 300 nafardan ziyod dzyudochisi qatnashib, medallar va reyting ochkolari uchun kurashishdi. Turnirning birinchi kungi bahslari yurtdoshlarimiz uchun omadsiz kechdi. Xususan, ilk bellashuvlardayoq Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) tarbiyalanuvchisi Bahrom Baturov (-60 kg) ozarbayjonlik Balabay Agayevga, Mirzohid Mahammadjonov (-60 kg) koreyalik Harim Liga, MVSM a'zosi Muhriddin Tilovov (-66 kg) yaponiyalik Yamato Fukudaga, Halimajon Qurbonova (-48 kg) portugaliyalik Katarina Kostaga, Gulnur Muratbayeva (-48 kg) koreyalik Li Xay Keyongga imkoniyatni boy berishdi. Bu raqiblarning aksariyati turnir yakunida, aksincha, g'olib yoki sovrindor bo'lganligi ham Portugaliyada ushbu dzyudochilarimizdan omad yuz o'g'irganidan dalolat.

Musobaqaning ikkinchi kuni bahslarga qo'shilgan dzyudochimiz Murodjon Yo'ldoshev (-73 kg) uchun mazkur Gran-pri katta omad keltirdi. U ilk bor bunday nufuzli musobaqada ishtirok etayotganligiga qaramay, saralash bahslaridan muvaffaqiyatli o'tdi. Finalda

unga ispaniyalik taniqli sportchi Salvador Kases Roka qarama-qarshi keldi. Murosasiz kurashda hamyurtimiz raqibini "ippon" evaziga mag'lub etib, faoliyati davomida ilk bor IJF tasnifidagi musobaqa medali sohibiga aylandi. Yo'ldoshev nufuzli turnirning oltin medali va Xalqaro dzyudo federatsiyasining 700 reyting ochkosiga ega bo'ldi.

Gran-pri turnirining so'nggi kuni tatamiga chiqqan 3 nafar dzyudochimizdan ham biroz omad yuz o'g'irdi. Saralash bahslarini muvaffaqiyatli o'tkazgan Doston Meyliyev (-90 kg) chorak finalda tojikistonlik Komronshoh Ustopiriyonga ogohlantirishlar hisobiga yutqazib qo'ydi. Musobaqa yakunida Dostonning bu raqibi bronza medalni qo'lga kiritdi. Ikkinchi vakilimiz Aqlmurodbek Xudoyberdiyev (-100 kg) esa ilk davrada fransiyalik Yoris Agbegnenuga qo'shimcha vaqtda imkoniyatni boy berdi. MVSM a'zosi Irisxon Qurbonboeva (-78 kg) saralash bosqich bahslarini muvaffaqiyatli o'tkazdi va chorak finalgacha yetib keldi. Biroq yarim finalga o'tishda polshalik Beata Pakutga yutqazib qo'ydi. Irisxon bronza medali uchun kurashda angliyalik Emma Reydga ham yo'l berishga majbur bo'ldi va nufuzli musobaqani 7-o'rin bilan yakunladi.

Portugaliyada yakunlangan IJF tasnifidagi 2022-yilning ilk yirik musobaqasida 4 ta oltin, bitta kumush va 4 ta bronza medalga egalik qilgan Janubiy Koreya terma jamoasi umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Niderlandiya va Portugaliya vakillari turnirning 2 tadan, Xorvatiya, Braziliya, Moldova, Belgiya, O'zbekiston va Kosova dzyudochilari bittadan oltin medalni qo'lga kiritgan holda keyingi pog'onalardan joy olishdi. Mazkur Gran-pri turnirida 41 davlatdan sportchilar qatnashib, 25 mamlakat vakillari sovrindor bo'lganligi yil davomida bizni yanada shiddatli dzyudo musobaqalari kutayotganligidan dalolat beradi.

## #Boks



**B**oks bo'yicha 22 yoshgacha bo'lgan yigit va qizlar o'rtasidagi ilk Osiyo chempionati (U-22) poytaxtimiz Toshkentda o'tkazildi. Qit'aning 12 davlatidan 150 nafarga yaqin yosh bokschilar qatnashgan birinchilik yurtimiz charm qo'lqop ustalarining ajoyib muvaffaqiyati bilan yakunlandi.

Poytaxtimizdagi "Universal" sport majmuasi qariyb bir hafta Osiyo boks muxlislari diqqat-e'tiborini o'ziga qaratdi va 22 yosh toifasidagilar o'rtasida ilk bor qit'a birinchiligi o'tkazilgani jahon boksining o'ziga xos voqeasi bo'ldi. Qizlar 12 ta, yigitlar esa 13 ta vazn toifasida qit'a chempionligi uchun o'zaro jang qilishdi.

Qizlar o'rtasidagi bahslarda qatnashgan bokschilarimizning 7 nafari sovrindor bo'ldi. Ularning ikki nafari yarim finalgacha muvaffaqiyatli jang qilib, qit'a birinchiligini bronza medalni qo'lga kiritish bilan yakunlagan bo'lsa, 5 nafari finalga chiqdi. Finalchilarning faqat bittasi hal qiluvchi bahsda imkoniyatni boy berib, kumush medal bilan kifoyalandi, qolgan 4 nafari yana g'alaba qozonib, chempionlikka erishdi.

O'g'il bolalar o'rtasidagi janglar yurtimiz sport muxlislari g'oyatda xursand etish bilan birga qit'a boks mutaxassislarini juda hayratga soldi. Zotan, 13 ta vazn toifasi bo'yicha janglarda qatnashgan vakillarimizdan faqat bir nafari bronza medal bilan kifoyalandi, qolgan 12 nafari so'nggi kungi final janglarida ham g'alaba qozonib, Osiyo chempioni bo'lishdi. Ilk chempionatdagi bunday yuqori muvaffaqiyat keyingi qit'a birinchiliklarida qaysidir terma jamoa bokschilari tomonidan takrorlanishi amrimahol!

Bir-biridan qiziqarli va murosasiz janglar yakunida yurtimiz yosh bokschilari 16 ta oltin, bitta kumush, 3 ta bronza, jami 20 ta medalni qo'lga kiritgan holda umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Mo'g'uliston U-22 yoshlar terma jamoasi 2 tadan oltin va kumush, 8 ta bronza medalini jamg'arib, umumjamoa hisobida ikkinchi, Tojikiston U-22 yoshlar terma jamoasi esa bitta oltin, 6 ta kumush va 4 ta bronza medal bilan uchinchi o'rinni egalladi.

# TAKRORLANISHI AMRIMAHOL MUVAFFAQIYAT

## OSIYO CHEMPIONATI QAHRAMONLARI

- Oltin medal sohiblari:**
- 48 kg: Asilbek Jalilov
  - 51 kg: Muhammadqodir Mamirjonov
  - 54 kg: Shaxzod Muzaffarov
  - 57 kg: Dilshod Abdumurodov
  - 60 kg: Xurshid Rasuljonov
  - 63,5 kg: Ruslan Abdullayev
  - 67 kg: Javlon Yo'ldoshev
  - 71 kg: Azizbek Tojiyev
  - 75 kg: Abdulaziz Abdupattayev
  - 80 kg: Jasurbek Yo'ldoshev
  - 86 kg: Timur Merjanov
  - + 92 kg: Jahongir Zokirov
  - 48 kg: Farzona Fozilova
  - 50 kg: Sabina Boboqulova
  - 52 kg: Feruza Kazakova
  - 63 kg: Mohinabonu Abdullayeva

- Kumush medal sohibi:**
- 54 kg: Nigina O'ktamova
- Bronza medal sohiblari:**
- 92 kg: Javohir Tog'aymurodov
  - 57 kg: Sitora Turdibekova
  - 60 kg: Dilfuza Bekova



Musobaqadan so'ng chempionatning "Eng yaxshi"lari e'lon qilindi. Hamyurtimiz Ruslan Abdullayev (-63,5 kg) musobaqaning "Eng yaxshi erkak bokschisi" deb e'tirof etilgan bo'lsa, o'zining ajoyib texnikasi bilan boshqalardan yaqqol ajralib turgan yaponiyalik Iri Sena "Eng yaxshi ayol bokschisi" nomiga loyiq topildi.

# XITOIY ARMIYASINING HAVO HUJUMIDAN MUDOFAA TIZIMI



*Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)ning harbiy-siyosiy rahbariyati hozirda mamlakat Qurolli Kuchlarini isloh qilish ishlarini izchil davom ettirmoqda. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri o'rta muddatli istiqbolda harbiy jihatdan kuchli dushmanning ehtimoliy agressiyasidan kafolatlangan himoyani ta'minlovchi darajaga ega bo'lishdan iborat. Hozirgi davrdagi harbiy to'qnashuvlarda havo-kosmik hujum vositalaridan keng foydalanilayotganini hisobga olgan holda, milliy Havo hujumidan mudofaa (HHM) tizimini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.*

Mamlakatning harbiy, ma'muriy va sanoat obyektlari (*rayonlari*), boshqa turlardagi qo'shin (*kuch*) gruppirovkalarini aviatsiya, qanotli va ballistik raketalar hujumidan mudofaa qilish, dushmanning havo-kosmik hujum vositalarini yo'q qilish, davlat (*harbiy*) boshqaruv organlari va aholini havo hujumi xavfidan ogohlantirish, havo chegaralari buzilishining oldini olish, dushmanning razvedkachi aviatsiyasiga qarshilik ko'rsatish, mamlakat aviatsiyasi uchun havo xavfsizligini ta'minlash singari vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etilgan HHM tizimi bugungi kunda aloqa va avtomatizatsiya vositalari bilan ta'minlangan boshqaruv organlari (*punktlari*), nishonni aniqlovchi hamda ko'rsatib beruvchi kuch va vositalar (*radiotexnik qo'shinlar, uzoq masofalarda radiolokatsion aniqlash tizimlariga ega bo'lgan samolyot va vertolyotlar*), havodagi dushmanni yakson qiluvchi kuch va vositalar (*qiruvchi aviatsiya, zenit-raketa qo'shinlari va zenit-artilleriyasi*) hamda ta'minot qo'shilmalaridan tarkib topgan.

Mamlakat hududini Havo hujumidan mudofaa qilish vazifasi XXR Xalq-ozodlik armiyasining Harbiy havo kuchlari zimmasiga yuklangan. HHM tizimining asosiy qo'shilmalari mamlakat poytaxti va davlat chegaralari bo'ylab taqsimlangan.

Qiruvchi aviatsiya tarixan HHM tizimining muhim bo'g'ini hisoblanib, u birinchi navbatda aerodinamik nishonlarga qarshi

kurashish uchun mo'ljallangan. Qo'shin ixtiyorida samolyotlar parki 1 500 dan ortiq taktik qiruvchi samolyotlar, shu jumladan, "Szyan-7" (400 ta), "Szyan-10" (400), "Szyan-8" (100), "Szyan-11" (350), "Szyan-16" (130), "Szyan-20" (20), Su-27 (30), Su-30 (80) va Su-35 (30) tipidagi samolyotlar bilan ta'minlangan. Uchuvchisiz uchish apparatlari, shuningdek, past balandliklarda parvoz qiluvchi nishonlarga qarshi kurash olib borish uchun Quruqlikdagi qo'shinlar, Harbiy havo va Harbiy dengiz kuchlarining "Chji-9", "Chji-10" va "Chji-19" tipidagi jangovar vertolyotlaridan foydalaniladi.

Xitoy harbiy nazariyotchilari nuqtayi nazaridan, mamlakat HHM tizimi asosini yerda joylashgan, aerodinamik va ballistik nishonlarni samarali yakson qilishga qodir bo'lgan o't ochish vositalari tashkil etishi lozim. Hozirda mamlakat hududida uzoq masofalarga (100 km.dan ortiq) mo'ljallangan S - 400, o'rta masofalarga (50-100 km) mo'ljallangan S-300, "Xunsi-9", "Xunsi-12", "Xunsi-22" yaqin masofalarga (10-50 km) mo'ljallangan "Xunsi-2", "Xunsi-6",

"Xunsi-7", "Xunsi-16", "Xunsi-17" va "Xunsi-61" tipidagi komplekslar tarkibiga kiritilgan boshqariluvchi zenit-raketalarni ishga tushiruvchi 1 700 dan ortiq qurilma joylashtirilgan.

Ucha yuqori bo'lmagan balandliklar va bevosita qo'riqlanayotgan obyektlar yaqinida havodagi dushmanga qarshi kurash olib borish uchun zenit-artilleriyadan foydalaniladi. Xitoy armiyasi ixtiyorida kalibri 23 mm.dan 100 mm.gacha bo'lgan 3 mingdan ziyod zenit to'plari, bundan tashqari 2 mingdan ortiq ko'chma zenit-raketa kompleksi ("Syanvey" va "Xunin" seriyasidagi), 600 ga yaqin "04A" tipidagi zenit-raketa to'p komplekslari va "Xunsi-6A" tipidagi zenit-raketa artilleriya komplekslari bor.

Harbiy dengiz kuchlarining HHM bo'linmalari kemalar gruppirovkalari va qirg'oq infratuzilmasi obyektlarini mudofaa qilish uchun mo'ljallangan.

Jangovar tarkibdan zenit-raketa vositalari bilan jihozlangan 100 dan ortiq kema, shu jumladan, "Lyaonin" va "Shandun" tipidagi avianosetslar, turli tipdagi eskadra minonosetslari, fregatlar va korvetlar joy olgan. Qirg'oqni mudofaa qiluvchi bo'linmalar asosan zenit-artilleriyasi to'plaridan foydalanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Xitoyda HHM kuchlari va vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratilmoqda, bu yangi turdagi hujum qurollarining jadal rivojlanib borayotganligi fonida mamlakat hududini ishonchli himoyalash zarurati bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi davrga kelib, Xitoyda ehtimoliy dushmanning asosiy havo hujumi vositalaridan ishonchli himoyani ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy Havo hujumidan mudofaa tizimi yaratilgan.



P. SAYDIVALIYEV tayyorladi.

# IDEAL RAFIQA BO'LAY DESANGIZ...

(Psixolog maslahati)

Tabiat ayolga shunday deydi:  
uddasidan chiqsang, go'zal bo'l,  
xohlasang, oqila bo'l, ammo doimo idrokli  
bo'lmog'ing shart!

Pyer Oposten BOMARSHE

✓ Hech qachon turmush o'rtog'ingiz ko'z o'ngida pardoz qilmang! Bu jarayonni unga ko'rsatmagan ma'qul.

✓ Go'zallikni ko'rsata biling. Turmush o'rtog'ingiz ishdan charchab kelyapti-yu, ovqatingiz tayyor emasmi? Bunday vaziyatda avvalo o'zingizga oro berib oling va chiroyli bo'lib kutib oling. Sizni

yasatilgan taomlari tayyor dasturxon qarshisida ko'rimsiz ko'rgandan ko'ra, go'zal holatda ovqat tayyorlab turganingizni ko'rsin.

✓ Hech qachon uning fikriga qatshi chiqmang, ammo har doim o'zingiz to'g'ri deb bilgan ishni qiling!

✓ Qo'pol so'zlarni ishlatmang, ayolligingiz yo'qoladi.


✓ Turmush o'rtog'ingizni ardoqlang! Ruhlantiring! Ular ayollarga nisbatan kuchli tug'ilganlar. Ularni ruhlantirmay uning erkakligini o'g'irlaysiz!

✓ Jahlingiz chiqqanida hech qachon ko'zguga qaramang. Avval tinchlanib, gullarga, osmonga qarang, yaxshi narsalarni eslang.

✓ Farzandlaringiz kichkinaligidan ularga otasi haqida hurmat bilan gapirishni va o'ylashni o'rgating. Ayniqsa, o'g'il bolaga o'rgatsangiz, u kuchli va qat'iyatli inson bo'lib yetishadi.

✓ Quyosh botgandan so'ng ovqatdan voz kechganingiz ma'qul.

✓ Har doim sizni xursand qiluvchi narsalarni qidiring, sevimli mashg'ulotingiz bilan shug'ullaning. Sizning kayfiyatingiz hammaga ta'sir qiladi.



## BIZNI ERTA QARITADIGAN 4 NARSA

1

### TAOMLANISH

Jarimfabrikantlar, fastfud, kam suyuqlik ichish va umuman olganda nosog'lom ovqatlanish.

2

### QUYOSH

Vitamin D ning tabiiy manbai hisoblangan quyosh me'yorida qabul qilinganda juda foydali. Quyosh nurlarini uzoq vaqt qabul qilish terini quritadi, natijada teri rangi o'zgarib, erta ajinlar tushishiga sabab bo'ladi.

3

### UYQU

Sog'lom uyqu – yoshlik, salomatlik va go'zallik garovi. Uzoq vaqt to'yib uxlamaslik natijasida stress gormoni – kortizol ishlab chiqarilishi ortadi. Bu gormon tanamizdagi oqsillarni yemiradi, natijada terini elastikligi yomonlashib, sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4

### STRESS, TUSHKUNLIK

Mahzun bo'lmang, tun ortidan albatta, tong otadi.



### YORILGAN QO'LLARDAN XALOS BO'LING!

1 litr iliq suvda 2 osh qoshiq tuzni eritib oling. Ushbu eritmada qo'llaringizni 10 daqiqa davomida ushlab turing. Keyin uni yuvmasdan, kaftlaringizni namlang va ularni quyidagi malham bilan yog'lang.

### Go'zallik uchun 15 daqiqa



#### Malham tayyorlash uchun:

tuxum – 1 dona  
asal – 1 osh qoshiq  
o'simlik yog'i – 1 osh qoshiq  
Hammasini aralashtirib, 20 daqiqaga qo'llarimizga surib qo'yamiz.

Natijasi sizni ko'p kuttirmaydi. Atigi 3-4 kun ichida qo'l terisi yumshoq va mayin holatga keladi.



**O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Farg'ona viloyati kengashi tasarrufidagi Uchko'prik tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan yosh avlod qalbida ona Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazish borasida samarali ishlar olib borilmoqda.**

# HAMKORLIKDAGI VATANPARVARLIK TARG'IBOTI



Bu boradagi tadbirlar, ayniqsa, "Vatanparvarlik oyli" doirasida yanada samarali bo'ldi. Hamkor tashkilotlar ko'magida bir qancha ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari tashkil etildi. Jumladan, o'tgan yil mobaynida tuman hokimligi, mudofaa ishlari, xalq ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan 68 ta davra suhbatlari va uchrashuvlarda jami 2 154 nafar faol ishtirok etdilar.

– Tashkilotimizning ommaviy axborot vositalari bilan uzviy hamkorligi muntazam yo'lga qo'yilgan, – deydi O'STK boshlig'i, "Shuhrat" medali sohibi Maxsudali Azimov. – Bunday hamkorlik natijasida ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doimiy ravishda olib borilyapti. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlamoqda.

Keyingi yillar mobaynida bevosita tashkilotning viloyat kengashi ko'magida Uchko'prik tumani o'quv sport-texnika klubi moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Vazirlar Mahkamasining sohaga doir qarori asosida amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan avtodrom, o'quv binosidagi sinfxonalar ta'mirlanib, zamon talablari asosida qayta jihozlandi. Birgina 2021-yil mobaynida 700 nafardan ziyod "B", "BC", "D" hamda "E" toifali haydovchilar tayyorlashga erishildi.

Bundan tashqari, tumandagi "Yoshlar daftari" ro'yxatiga



kiritilgan yoshlar faoliyatiga ham e'tibor qaratilib, shu ro'yxatdagilarning 42 nafari imtiyozli ravishda "BC" toifali haydovchilik guvohnomasiga ega bo'ldi. Bunda bevosita mavjud 20 ga yaqin o'quv-mashq avtomobili, 8 ta o'quv auditoriyasi, ma'naviyat va kompyuter, elektron o'quv qo'llanmalardan, trenajyor o'quv xonalaridan samarali foydalanilmoqda.

Shuningdek, klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, turli sport to'garaklari ishini yo'lga qo'yish, sport musobaqalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilyapti. Mavjud "Havo miltig'idan o'q otish", "Karting", "Raketamodel", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalarda 84 nafar yosh sportchilar shug'ullanmoqda. O'tgan yili sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish rejasiga asosan tuman miqyosida bir nechta musobaqa o'tkazildi. Bunda klub a'zolari va tumandagi maktablardan saralab olingan o'quvchi-yoshlar ishtirok etdilar.



Xizmatlar litsenziyalangan

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Farg'ona viloyati kengashi tasarrufidagi Uchko'prik tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi tumanida istiqomat qilayotgan barcha yoshlarni "B", "BC", "C", "E", "D" toifali haydovchilik kurslariga o'qishga, shuningdek, sportning texnik va amaliy turlaridan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Raketamodel", "Karting" kabi seksiya va to'garaklarda shug'ullanishga taklif etadi.

**Manzilimiz:** Uchko'prik tumani "Vatanparvar" tashkiloti o'quv binosi.

**Telefon:** (91) 146-45-44.

# BO'LAJON

## O'GAY ONA

(hikoya)

Nafisa oilaning katta farzandi. Uning ukasi va singlisi bor. Ukasi Shavkat olti yosh, singilchasi Nigora esa uch yoshga to'lmagan. Ular ota-ona va buvisi bilan ahilinoq yashashardi. Kutilmaganda onasining bu dunyoni tark etishi oilani qayg'uga soldi. Bu ayriliq, ayniqsa, bolalarga yomon ta'sir qildi. Nigora onasini so'rab tinmay xarxasha qilsa, Shavkat odamovi bo'lib qolgandi, hech kim bilan gaplashishni istamasdi.



Onasining vafotidan keyin Nafisa ham bir muddat o'ziga kela olmadi. Xayolidan onasi nari ketmasdi. Ammo maktabdagi o'qishi, oila yumushlarida buvisiga yordamlashish, ukalariga qarash uni anchayin chalg'itardi. Oylar o'tdi. Y e t m i s h g a yaqinlashayotgan buvisi tez-tez kasal bo'la boshladi. Osh-ovqat, yuvdi-tara, nabiralarga qarash unga og'irlik qilardi. Bu muammolarning chorasi esa, dadasining yangi ona olib kelishi edi. Buvisi shu haqda dadasiga og'iz ochdi:

– O'g'lim, farzandlaringga ona kerak, uylanmasang bo'lmaydi. Men ham qarib qoldim, ro'zg'or ishlarida charchab qolyapman. Nima deysan?

– Onajon, hammasini ko'rib-bilib turibman, – dedi dadasi biroz sukut saqlagandan so'ng. – Bolalar ham, siz ham qiynalib ketdingiz. Men roziman, bolalarimga onani o'zingiz tanlay qoling.

Buvisining chehrasi ochildi. Uch-to'rt oy o'tib, oilalariga Sevara ismli yangi ona keldi. Nafisa ancha paytgacha bundan xafa bo'lib yurdi. U o'gay onasini yoqtirmasdi. Sevara opa Nafisaga qancha yaxshi gapirmasin, mehribonchilik qilmasin, parvosiga olmas, qovog'ini uyib olardi. Bu borada buvisining nasihatlarini ham kor qilmadi.



Shu holatda oylar o'tdi. Ukalari Sevara opaga ko'nikib ketdi, uni onalari kabi yaxshi ko'rib qoldi. Ammo Nafisaning munosabati o'zgarmasdi. Toki bir voqea sodir bo'lmaguncha.

Kunlarning birida singilchasi zinadan yiqilib, oyoqchasi lat yedi. U shunday chinqirib yig'ladiki, ovqat qilayotgan Sevara opa oshxonadan otilib chiqdi. U Nigoraning oyoqlarini o'pib, bag'riga bosib, tasalli berar, uning ham ko'zlaridan yosh quyilardi. So'ngra singilchasining oyog'idagi shilingan joyga dori surib, bog'lab qo'ydi va u yupangunga qadar hovlida ko'tarib yurdi. Nafisa bu voqeani derazadan kuzatib turar, Sevara opa ko'z o'ngida go'yoki o'z onasi bo'lib gavalanardi.

Shu kundan boshlab, Nafisaning o'gay onasiga bo'lgan munosabati o'zgardi. Uni hurmat qila boshladi. Onasiga uy yumushlarida ko'maklashar, mehribonchiligini "rahmat, oyijon", deya ochiq chehra bilan qabul qilardi. Pasayib ketgan darslari ham o'z o'rniga tushdi. Bundan buvisi ham, dadasi ham xursand bo'ldi, albatta. Ular yana ahil oila bo'lib yashay boshlashdi.

**Ozoda MUTALOVA,**  
Toshkent shahar  
Mirzo Ulug'bek tumani  
241-umumta'lim maktabining  
8-sinf o'quvchisi



## HARBIYLARIMIZ

Azonda ham, shomda ham,  
Zim-zimiston tunda ham,  
Harbiylarimiz bor ekan,  
Sira yo'qdir dilda g'am.

Qo'riqlashar mardona,  
Bu dunyoda yagona.  
Harbiylarimiz bor ekan,  
Xalqimiz omon ekan.

Doim bo'ling sog'-omon,  
Qolmasin dilda gumon.  
Harbiylarimiz bor ekan,  
Yurtimiz tinch har zamon,

Akam harbiydir o'zi,  
Aslo yumilmas ko'zi.  
Vatan uning ilk so'zi,  
Vatan o'g'lioni o'zi.

**Mohinur IBROHIMOVA,**  
337-umumta'lim maktabining  
8-sinf o'quvchisi

## TENGDOSHLARINGIZ IJODIDAN



**Ruxshona G'YOSOVA,**  
5-sinf o'quvchisi

## O'YLA, IZLA, TOP!

Qatordagi qaysi biri ortiqcha?


## G'AROYIB SUHBAT

Yetti yoshli Motsart Frankfurt-na-Mayneda konsert beradi. Tomosha tugagach, uning oldiga o'n to'rt yoshli bir bola keladi:

– Juda ajoyib chalar ekansan, menga hech qachon bunaqasini o'rgatishmagan.

– Nahotki! – ajablanadi yosh Wolfgang. – Buning hech qanday qiyin joyi yo'q. Nota yozib ko'rganmisan? Kallangga keladigan kuylarni qog'ozga tushirganmisan?

– Bilmadim... mening kallamga faqat she'r keladi, xolos.

– Yo'g'-e! – battar hayratlanadi Motsart. – She'r yozish juda qiyin deyishadi, shu to'g'rimi?

– Bekor gap, juda oson-ku. Bir urinib ko'rgin...

Motsartning suhbatdoshi yosh Gyote edi.



## YOZOLMAYDIGAN YOZUVCHI

Detektiv asarlar qirolichasi Agata Kristidan so'rashibdi: "Nega hajm jihatidan teng bo'lgan ikki asaringiz turli miqdorlarda sotilmoqda?" U esa shunday javob beradi: "Chunki ulardan biridagi qotilliklar soni ikkinchi kitobdagi qotilliklar sonidan ikkitaga ko'p".

Kristi Birinchi jahon urushi davrida harbiy gospitalda hamshira bo'lgan edi.

Oradan bir qancha vaqt o'tib, dorixonada ishlaydi. U shu darajada tajribali ediki, har qanday zaharni bir qarashdayoq ajrata olgan. Balki, shuning uchun ham Kristining detektiv asarlaridagi ko'plab jinoyatchilar zahardan foydalanib, qotillik sodir etishgandir. Darvoqe, Agata Kristi qo'li bilan yoza olmaydigan disgrafiya kasaliga duchor bo'lgani bois asarlarini aytib turib yozdirgan.



## ENG QISQA YOZISHMA

Viktor Gyugo 1862-yili ta'tilda dam olayotgan chog'i yaqindagina chop etilgan "Xo'rlanganlar" romaniga kitobxonlarning munosabatini bilgisi keladi va o'z noshiriga faqat "?" belgisidan iborat telegramma jo'natadi. Noshir ham javob tariqasida bitta "!" belgisidan iborat telegramma yo'llaydi. Shubhasiz, bu tarixdagi eng qisqa yozishma edi.

G. MURODOVA tayyorladi.

## RIVOYAT

### UCHTA ELAK

Donishmandning oldiga bir kishi hovliqib kelib:

– Sizga bir so'z aytmoqchi edim, – debdi.

– Shoshma, – debdi donishmand, – aytmoqchi bo'lgan gaplaringni uchta elakdan o'tkazdingmi?

– Qanaqa uchta elak? – hayron bo'libdi shoshqaloq.

– Birinchisi – haqiqat elagi, keltirgan xabaring haqiqatmi? Ikkinchisi – yaxshilik elagi, aytar so'zing odamlarga ezgulik keltiradimi? Uchinchi elak shuki, menga shu xabarni aytishing shartmi?

O'ylanib qolgan haligi odam:

– Yo'q, shart emas... – deb javob beribdi.

Shunda donishmand:

– So'zlaring rostligiga ishonmasang, yaxshilikka xizmat qilmasa, menga aytishing shartmas, o'zingni ham, meni ham qiynama, – debdi.

## AKADEMIK-NING ISTAGI

Wolfgang yetti yoshida birinchi simfoniyasini, o'n ikki yoshida esa birinchi operasi "Bastyen va Bastyenna"ni yozadi. Bolon akademiyasida yigirma olti yoshga to'lmagan kishi akademiklikka qabul qilinmas edi. Lekin Motsartday favqulodda iqtidor egasi uchun istisnoga yo'l qo'yiladi. U o'n to'rt yoshida Bolon akademiyasi akademigi bo'lib saylanadi.

Otasi uni qutlagan payt deydi:

– Dada, mana, akademik ham bo'ldim, endi yarim soat o'ynab kelishingga ruxsat berasizmi?



#G'aroyib\_dunyo

# BIZ BILMAGAN HAQIQATLAR

Bizni o'rab turgan olamda shunday hodisa va voqealar borki, ular haqida eshitib hayratlanmaslikning iloji yo'q. "Ular qanday hodisalarki, insonlar hayratiga sabab bo'lsa?" Ayni vaqtda xayolingizdan shu savol o'tayotgan bo'lsa, ajab emas. O'ylaymizki, quyidagi ma'lumotlar orqali siz o'zingizni qiziqtirgan barcha savollarga javob topasiz.

- Yer sharining yarim aholisi biror marta ham qor ko'rmas ekan.
- Osakada (Yaponiya) shunday yo'l borki unga binodagi ofis orqali o'tiladi.
- Yerdagi qum zarralaridan ko'ra osmondagi yulduzlar soni ko'proqdir.
- Charli Chaplin bir-biriga o'xshagan Charli Chaplinlar tanlovda uchinchi o'rinni olganini ko'pchilik bilmasa kerak. Ammo bu haqiqat.
- Xitoy maktablarida o'qituvchilar o'quvchilar yaxshi o'qishlari uchun dars vaqtida sinfda 20 daqiqa uxlashlariga ruxsat berishar ekan.
- Aktrisa Shirli Xenderson "Gari Potter" filmida Plaksa Mirtl degan 13 yoshli o'quvchi qiz rolini ijro etganida 40 yoshlar atrofida bo'lgan.

- Pluton planetasi Rossiya davlatiga nisbatan kichik.
- Koala sutkada 18 soatdan 22 soatgacha uxlaydi.
- Bolalar bir oydan 3 oygacha ko'zyoshsiz yig'lashadi. Chunki bu vaqtda bolalarning ko'zyosh bezlari hali suyuqlik ishlab chiqarmagan bo'ladi.
- Dunyoda kubik-rubik o'yinchog'i eng ko'p sotiladigan tovar hisoblanadi.
- Kolibri degan qushcha orqasiga qarab uchadigan yagona qush. Uchayotgan vaqtda uning yurak urish tezligi minutiga 500 taga yetadi.
- Tokiodagi hayvonot bog'lari hayvonlar tashrif buyuruvchilardan dam olishlari uchun bir yilda 2 oyga yopilar ekan.

- Rossiya bilan AQShni bor-yo'gi 4 kilometr ajratib turadi.
- Ummondagi eng sershovqin mavjudot krevetka (mayda qisqichbaqa) sanaladi.
- Aleksandr Greyam Bell telefonni kashf qilgan bo'lsa ham biror marta onasi va rafiqasiga telefon qilmagan ekan. Nega? Chunki ularning eshitishda nuqsoni bo'lgan.
- Livermor shahrida 110 yildan buyon yonib turgan chiroq bor.
- Dunyodagi eng uzun tog' zanjiri suv ostida joylashgan.
- Butun dunyodagi barcha muzeylarga qaraganda dengiz ostida ko'proq tarixiy asarlar mavjud.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

## QADRLI MUSHTARIYLARIMIZ DIQQATIGA!

"Vatanparvar" gazetasi va "O'zbekiston armiyasi" jurnali faoliyati bo'yicha taklif va mulohazalar, savollar va tavsiyalar bormi? Ijodiy ishlaringizni gazeta sahifalarida ko'rishni istaysiz-u, tahririyat bilan aloqaga kirishish siz uchun murakkablik tug'diryaptimi? Bu endi muammo emas.

**"Vatanparvar" birlashgan tahririyatining Telegram boti ishga tushdi:**

@Vatanparvargazetasi\_bot

Sizning fikringiz, ijodiy qarashlaringiz biz uchun muhim.



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

<p><b>VATANPARVAR</b></p> <p>MUASSIS</p> <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI</p> <p>www.mudofaa.uz</p>	<p><b>Tahririyat kengashi:</b> polkovnik Hamdam Qarshiyev polkovnik Bahrom Zulfiqorov polkovnik Alisher Boboxonov Maqsud Abilov</p> <p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.</p>	<p><b>Bosh muharrir vazifasini vaqtincha bajaruvchi:</b> podpolkovnik To'liqin Jumanazarov</p> <p>ISSN 2010-5541</p> <p>Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.</p> <p><b>Telefonlar:</b> kotibiyat: 71 260-36-50 buxgalteriya: 71 260-35-20 yuridik bo'lim: 71 260-29-41 faks: 71 260-32-29</p>	<p><b>Navbatchi:</b> kapitan Aziz Norqulov <b>Sahifalovchi:</b> Nodirabegim Valiyeva <b>Musahhih:</b> Sayyora Meliqo'ziyeva</p> <p>Buyurtma: G-0205 Hajmi: 6 bosma taboq Bichimi: A3 Adadi: 32 689 nusxa Bosishga topshirish vaqti: 14:00 Topshirildi: 14:30</p> <p>Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p>	<p>Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.</p> <p>Nashr ko'rsatkichi: 114. Bahosi: kelishilgan narxda.</p> <p>"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.</p> <p>1 2 3 4 5 6</p> <p>Manzilimiz: 100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.</p>
	<p>t.me/mv_vatanparvar_uz t.me/mudofaa_press</p> <p>www.mv-vatanparvar.uz</p> <p>facebook.com/UzArmiya</p> <p>instagram.com/uzbekistanarmy</p> <p>www.youtube.com/c/UzArmiya</p>			